

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK:

YUNUSOV JONIBEK

**AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA
KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.10. – «Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti»

**Magistr darajasini olish uchun
taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

SAMARQAND – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYA QILISH SHAROITIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATINI NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vazifalari.....	8
1.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlar.....	17
1.3. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining xorij tajribasi.....	29
II-BOB. SAMARQAND VILOYATIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLARI FAOLIYATINING HOLATI.....	35
2.1. Aholini ish bilan bandligi holati tahlili.....	35
2.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining tahlili.....	43
2.3. Nodavlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.....	52
III-BOB. AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATI SAAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	62
3.1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining samaradorligini baholash usullari.....	62
3.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining tashkiliy tarkiblarini takomillashtirish.....	70
XULOSA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	84
ILOVALAR.....	91

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni yangilash sharoitida mamlakatimizda inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etib borishida mustaqil taraqqiyot yo'lining to'g'ri tanlangani, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyasining har tomonlama puxta asoslangan hamda xalqimizning fidokorona mehnati eng muhim va asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarning rivojlanishi mos ravishda ijtimoiy mehnat sohasidagi munosabatlarning rivojlanishini ham taqozo qiladi. Bu esa, mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishni zarurat etadi. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Hisobot yilidayangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi"¹. Buning uchun avvalambor ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan samarali

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

foydalanish zarur. O'z-o'zidan ayonki, har qanday iqtisodiy munosabatning tashkiliy-iqtisodiy bazasiz amalga oshishi mushkul. Mehnat munosabatlari, xususan aholini ish bilan bandligini ta'minlashni amalga oshirishning shunday asoslari birinchi navbatda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, shuningdek aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatini samaradorligini oshirishga bog'liqdir.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chuqurlashtirish sharoitida O'zbekistonda ham mehnat munosabatlari samarali boshqarish hamda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatlarining samaradorligini oshirish bilan bog'liq yechimini topish lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ularning asosiylari sifatida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda ularning vazifalari, ular faoliyatini shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini tahlil qilish, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini samaradorligini baholash usmullari hamda uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish kabi muammolarni alohida qayd etib o'tish lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mehnat bozori, aholini ish bilan bandlik siyosati, bandlikka ko'maklashuvchi organlar muammolarini o'rganishga MDH davlatlari olimlaridan Adamchuk V.V., Blyaxman A.S., Volgin N.A., Genkin B.M., Gerasimov V.N., Zbysheko B.G., Kolosnitsyna M.G., Maslova I.S., Nikiforova A.A., Odegov Yu.G., Pavlenkov V.A., Rudenko G.G., Slezinger G.E., va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. Bu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov Q.X., Zaynutdinov Sh.N., Zokirova N.K., Maksakova L.P., Mamarasulov F.U., Rahimova D.N., Rahimova N.X., Tursunxo'jayev M.L., Ubaydullayeva R.A., Xolmo'minov Sh.R., Xudoyberdiyev Z.Ya., Xo'jayev N., Shoyusupova N. va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Bu ilmiy izlanishlarda mehnat bozorining mohiyati, uning shakllanishi, ishsizlikning sabablari va uni kamaytirish yo'nalishlari, aholini ish bilan bandligini

oshirish yo'llari to'la ochib berilgan. Ammo ushbu ishlarda aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining samaradorligini oshirish tadqiqot obyekti sifatida alohida o'rganilmagan. Bu muammolarning bozor munosabatlari rivojlanishi davri hamda iqtisodiyotni yangilash sharoitida ahamiyatliligi bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, maqsadi va asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi – iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishining asosiy **vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

– aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vazifalari tadqiq etish;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlarini taklif etish

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish;

– aholini ish bilan bandligi holati tahlil qilingan;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyati tahlili qilish;

– nodavlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini tadqiq qilish;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini baholash usullarini aniqlash;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini tashkiliy tarkiblarini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – Samarqand viloyati aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar.

Tadqiqot predmeti – aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuv markazlari faoliyatida amalga oshiriladigan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li va bozor iqtisodiyotiga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bozor munosabatlarini rivojlantirish hamda ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish haqidagi qarorlari hamda xorijlik va vatanimiz olimlari olib borgan ilmiy ishlar xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishni yozishda Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarlari va tuman bandlikka ko'maklashuvchi markazlarining axborotlari manba bo'lib xizmat qildi.

Mazkur ishda quyidagi **usullardan** foydalanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va boshqalar.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vazifalari tadqiq etildi;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlari taklif etildi;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlari bo'yicha xorij tajribasi o'rganildi;

– nodavlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlandi;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatlarining samaradorligini baholash usullari aniqlandi;

– bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini tashkiliy tarkiblarini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakavi ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy va amaliy natijalari bo'lib, aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirishda va davlat, nodavlat ish bilan bandlik organlarini asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bitiruv malakavi ishidagi nazariy xulosalar ilmiy va amaliy tavsiyalarni Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatlarini boshqarish, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan samarali tadbirlarni ishlab chiqishda va uni tashkiliy tuzilishini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda amaliyotga joriy etish mumkin.

Magistrlik dissertasiyasining tarkibiy tuzilishi. Ishning tarkibi, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq: kirish, mavzuning asosiy mazmuni va mohiyatini ifodalovchi sakkizta savollardan iborat uchta bob, hulosasi va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYA QILISH SHAROITIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATINI NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u mamlakat iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan bandligini ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va bu sohalarni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmonini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PQ-1251-son qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 fevralda 10-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PQ-1251 – son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori asosida tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari (keyingi o'rinlarda – Markaz deb ataladi) faoliyati

to'g'risida Nizom ishlab chiqildi, ushbu Nizom asosida Markazlarning maqomi, vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining qarorlari, buyruqlari va normativ – huquqiy xujjatlariga, bosh boshqarmaning buyruq va qarorlariga, tuman (shahar) xokimining qaror va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi .

Markaz davlat boshqaruvining tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organi bo'lib, uni tizimiga yirik qishloq (mahalla) fuqarolar yig'inlarida ish bilan ta'minlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish turg'un (stasionar) punktlari kiradi. Shuningdek, markaz huzurida Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularning faoliyati alohida Nizom bilan belgilanadi.

Markaz belgilangan tartibda ajratiladigan byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari Bandlikka qo'maklashish davlat jamg'armasi hisobiga shakllantiriladigan mehnatga haq to'lash fondi mablag'laridan moliyalashtiriladi, hamda belgilangan tartibda mehnat organlari xodimlarining mehnatini rag'batlantirish, xamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'laridan foydalanadi.

Aholini ish bilan bandligini oshirishda bandlikka ko'maklashuvchi markazlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritishda uning vazifalarini kengroq ko'rib chiqish orqali yoritish mumkin.

Markazning asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklarini hisobga olgan holda mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

– mehnat bozorini rivojlantirish va boshqarish, aholining bandligi, shu jumladan xorijda ishlashini ta'minlash, demografik omillar va iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ishga joylashtirishning ilg'or shakllarini joriy etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni tayyorlash;

– band bo'lmagan aholi va ishsizlarga, birinchi navbatda yoshlarga, ayollarga, imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ularni professional qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha, shuningdek ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish;

– yolg'iz qariyalar, nogironlar, kam ta'minlangan oilalar va aholining boshqa zaif toifalarini ijtimoiy muxofaza qilish bo'yicha amaliy va aniq yunaltilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish;

– mehnat, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni, mehnat munosabatlari, mehnatni moddiy rag'batlantirish va muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Shuningdek, bandlikka ko'maklashuvchi Markazga o'z doirasida yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1. Mehnat bozorini rivojlantirish va tartibga solish hamda aholi bandligini ta'minlash sohasida:

– hududlarning demografik rivojlantirish prognozlarini amalga oshiradi, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha samarali chora-tadbirlar kompleksini asoslagan holda mehnat resurslarining prognoz balanslarini ishlab chiqadi;

– ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mehnat resurslari soni hamda tarkibini o'rganadi, uni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqadi;

– aholining bandligi darajasi va tarkibini to'liqroq va xolisona baholashni ta'minlash, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozorining ahvoli monitoringini tashkil etadi;

– qurolli kuchlardan bo'shatilgan fuqarolarga ularning bandlik sohasidagi huquqi haqida tushunchalar berish, ularning egallagan kasbi bo'yicha ish bilan ta'minlashda ko'maklashadi;

– jazo muddatini o'tagan, amnistiya tushgan fuqarolarni vakant va kvotalangan ish o'rinlariga joylashtirishda ko'maklashadi;

– ishdan bo'shagan, shu jumladan korxonaga tugatilishi yoki bankrotga uchraganligi munosabati bilan ishsiz bo'lgan fuqarolarni ro'yxatga olib, ish bilan ta'minlashda ko'maklashadi;

– aholini ish bilan ta'minlash va ish o'rinlarini barpo etish hududiy dasturlarini ishlab chiqishda qatnashadi va bajarilishi yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha hokimliklarga ma'lumotlar taqdim etib boradi;

– bandlikni ta'minlash xududiy dasturi asosida ish o'rinlari yaratilishi monitoringini tashkil etadi;

– ishsizlarni hisobga olishni tashkil qiladi;

– statistika organlari bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati bilan band bo'lgan fuqarolarni hisobga olishni tashkil qiladi;

– shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan band bo'lgan shaxslar hisobini amalga oshiradi;

– ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan birgalikda yoshlarning va ish bilan band bo'lmagan aholining kasb-hunarga xohishini va mehnat yo'nalishlarini aniqlash uchun sosiologik tadqiqotlar o'tkazilishini tashkil etadi;

– bandlik va ish o'rinlari tashkil etish hududiy dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

– iqtisodiyotni isloh qilish va tarkibiy qayta tashkil etish davomida, shuningdek tashkilotlarning bankrot bo'lishi va tugatilishi natijasida ishdan bo'shab qoladigan xodimlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli dasturlar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va tashkilotlarga korxonalar hamda fuqarolar o'rtasida kooperasiya asosida kasanachilikni tashkil etishni kengaytirish va aholining o'zini o'zi ish bilan ta'minlashining boshqa shakllarini rivojlantirilishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan takliflar tayyorlaydi, shuningdek oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish masalalarida ko'maklashadi;

– hududdagi mulkchilik shaklidan va ishlovchilar sonidan qat'iy nazar korxonalar, tashkilot va muassasalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni qonunda belgilangan tartibda yig'adi va vakant ish o'rinlari xaqida tizimli ma'lumotlar bankini shakllantiradi;

– markazlarda ish bilan band bo'lmagan aholiga xududdagi, mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadi;

– ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun eng kam ish o'rinlari yaratilishi bo'yicha hokimliklarga takliflar kiritadi va mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish bo'yicha qarorining bajarilishini nazorat qiladi;

– aholi, shu jumladan yoshlar, ayollar, imkoniyatlari cheklangan shaxslar, ishdan bo'shab qolgan xodimlar va aholining boshqa toifalari bandligi va ularni ishga joylashtirishga ko'maklashish, shuningdek bo'sh ish joylari bo'yicha axborotlarning shakllantirilishini va tahlil etilishini tashkil qiladi;

– korxonalar, tashkilotlar va muassasalar va boshqa manfaatdor idoralar ishtirokida bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini o'tkazadi;

– o'rnatilgan tartibda ishsiz maqomi berilgan fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga yuboradi.

2. Aholi bandligini rivojlantirishning samarali shakllari sohasida:

– ish beruvchilarga ularning imkoniyatidan kelib chiqib kasanachilik ishchi o'rinlarini yaratish bo'yicha takliflar beradi, ish beruvchilar orasida bandlik to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borib, korxonalarda kasanachilik ish o'rinlarini yaratilishi monitoringi va hisobini olib boradi;

– oilaviy tadbirkorlik subyektlariga bankdan kreditni rasmiylashtirishda maslahatlar berib, ko'maklashadi;

– xizmat ko'rsatish va servis, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida ish joylarini yaratishda ko'maklashadi;

– yirik qoramol o'stirish bilan xususiy va dexqon xujaliklarida band bo'lganlarni hisobga oladi, ularga yangi mehnat daftarchasini ochadi.

3. Ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish sohasida:

– ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida o'quv muassasalari bilan shartnomalar tuzadi va ularni malakasini oshirishni tashkil etadi;

– ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni usto-shogird usulida yakka tartibda kasbga tayyorlaydi;

– ishsizlarga kasbga tayyorlash qayta tayyorlash va malakasini oshirish davrida stipendiya to'laydi;

– o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari bilan kasb-hunar kollejlari, akademik liseylari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashganligi monitoringini olib boradi.

4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida:

– kam ta'minlangan oilalarga, bolali oilalarga hamda ikki yoshga to'lguncha bolasini parvarish qilayotgan onalarga nafaqalarni tayinlash va to'lash nazoratini olib boradi;

– urush qatnashchilari va nogironlarni hamda ularga tenglashtirilgan aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga hukumat tomonidan berilgan imtiyoz va kafolatlarni manzilli yetkazilishini tashkillashtiradi va nazoratini olib boradi;

– muhtoj nogironlarni protez-ortopediya mahsulotlari va rehabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlash, ushbu vositalar bilan ta'minlangan nogironlar o'rtasida sifat monitoringini olib boradi;

– urush nogironlari va ularga tenglashtirilganlarni bepul sihatgoh yo'llanmalari bilan ta'minlash, sihatgoh yo'llanmalaridan manzilli foydalanish ishlarini tashkillashtirish va nazoratini olib borishdan iborat.

Farg'ona va Toshkent shahar imkoniyati cheklangan shaxslarga ixtisoslashtirilgan kollejlarda ta'lim olish uchun nogironlarga yo'llanma beradi.

– hududiy bosh boshqarmalarga o'rnatilgan tartibda har oyda va har chorak yakuni bilan belgilangan muddatlarda yo'nalish bo'yicha hisobotlarni topshiradi;

– barcha turdagi xayriya va yordam jamg'armalari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan aloqada bo'lib, kam daromadli, muhtoj oilalarga moddiy yordam va otalik yordamini tashkillashtiradi;

– qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibga asosan benzinga tavon puli to'lash hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi va nazoratini olib boradi;

– imtiyozli yo'l chiptalari olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarni ro'yxatini shakllantirish, tegishli hujjatlarni jamlash, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtiradi va nazoratini olib boradi;

– ChAES, urush nogironlari va qatnashchilari, ularga tenglashtirilgan shaxslarni guvohnoma bilan ta'minlash, ular hisobini yuritadi;

– yolg'iz keksalar va nogironlarni vazirlik tizimidagi Saxovat va Muruvvat uylariga rasmiylashtirishga oid hujjatlarni hududiy bosh boshqarmalar Ishchi guruhlariga taqdim etadi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2008 yil 29 avgustda 1848-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga rasmiylashtirish tartibi to'g'risida"gi Qoidalarda belgilangan hujjatlar jamlanib, hududiy bosh boshqarmalar qoshidagi Ishchi guruhga taqdim etiladi.

– yolg'izlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini shakllantiradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 212-sonli farmoniga asosan ro‘yxatga olingan yakka yolg‘izlarga hukumat tomonidan belgilangan imtiyozlarni manzilli yetkazilishini ta‘minlaydi;

– tuman bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Markazi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, moliya bo‘limi va savdo tashkilotlari bilan to‘rt tomonlama shartnoma to‘zishda ishtirok etadi;

– yakka - yolg‘iz sifatida ro‘yxatga olingan shaxslarning hisobini yuritadi;

– yakka-yolg‘izlarga sifatli xizmat ko‘rsatilishi va ularning belgilangan imtiyozlar bilan ta‘minlanishlarini, hamda sifatli 8 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va kir yuvish vositasi bilan belgilangan me‘yorlarda ta‘minlanishlarini nazorat qiladi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 sentyabrdagi PQ-459-son Qaroriga asosan ro‘yxatga olingan yolg‘izlarga moddiy yordamni tashkillashtiradi;

– yolg‘izlarni dispanser ko‘rigidan o‘tkazish ishlarini sog‘liqni saqlash tizimi idoralari bilan birgalikda amalga oshiradi;

– yolg‘izlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatadigan ijtimoiy xodimlar ishini tashkillashtiradi;

– yakka-yolg‘iz qariyalarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi mahalliy dastur tadbirlarini ijro etish ishlarida ishtirok etadi;

– yakka-yolg‘izlarning ijtimoiy ta‘minoti borasida amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘risida axborot, ma‘lumot va hisobotlarni tayyorlaydi;

– yakka-yolg‘iz pensioner vafot etganda, dafn etish marosimini tashkillashtirish ishlarida ishtirok etadi;

– ijtimoiy xodimlar faoliyati ustidan nazorat olib boradi, haftada bir marotaba ijtimoiy xodimlar o‘rtasida yig‘ilish o‘tkaziladi, saylanma tarzda ijtimoiy xodimlar faoliyati tekshirib, xulosa beradi;

– yangi ijtimoiy texnologiyalar bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi va amalga oshiradi;

– infratuzilma obyektlarining nogironlar va keksa fuqarolar uchun qulayligini ta'minlovchi shaharsozlik sohasida davlat siyosatini shakllantirishda qatnashadi;

– o'z vakolati doirasida fuqarolarni qabul qiladi, ariza va shikoyatlarga javob tayyorlaydi.

5. Muhtoj oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida:

– fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga nafaqa va moddiy yordamga muhtoj kam ta'minlangan oilalarni aniqlashda ko'maklashadi;

– o'rnatilgan tartibda nafaqa tayinlash va to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatishda fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarini nazorat qiladi va monitoring o'tkazadi;

– kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan nafaqa, moddiy yordamni belgilashda yo'l qo'yilgan xato aniqlansa, hokimiyatga fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi tomonidan qabul qilingan qarorni bekor qilish bo'yicha taklif kiritadi.

6. Mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish va Mehnat qonunchiligiga rioya qilish ustidan nazorat qilish sohasida:

– fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish majburiyatlarining ish beruvchilar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi;

– mehnat, mehnatni muhofaza qilish, nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonunlarini, shu jumladan "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni talablari ijrosi, mehnat muhofazasi qoidalari va me'yorlariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– korxonalarda mehnat muhofazasi va sharoitlarni takomillashtirish to'g'risida takliflar beradi;

– ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tekshiradi, sabablarini tahlil qiladi va ularning oldini olish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi.

1.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining shakllanish mezonlari va ko'rsatkichlar

Hozirgi vaziyatning o'ziga xosligi shundan iboratki, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholining o'sish sur'atlari ma'lum darajada bir xil emasligi, mehnat resurslari sonining o'sishi bilan jamoat xo'jaligidagi ish bilan bandlik dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikning qattikligidir. Mehnat resurslari tarkibiga aholining tabiiy harakati o'zgarishining ko'payishi ta'sir ko'rsatmoqda. Shuni ta'kidlash muhimki, mehnatga qobiliyatli yoshga kirayotgan yigit va qizlarning ko'pchiligi mehnatga qobiliyatli aholini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni emas, balki uning tabiiy yo'q bo'lishi o'rnini qoplaydi, ya'ni avlodlarning jadal almashuvi sodir bo'ladi, u mehnat resurslarining sifat tarkibi keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ayni vaqtda kelgusida xodimlarning ommaviy ravishda bo'shatilishi natijasida ish bilan bandlik vaziyati mehnatga qobiliyatli aholining o'sishi sezilarli darajada ko'payishi tufayli murakkablashuvi mumkin.

Ish bilan bandlik ijtimoiy totuvlik va barqarorlikka erishuvning, jamiyat iqtisodiy rivojining muhim omilidir. O'tish davrida bandlik sohasidagi hukumatimizning inson omiliga qaratilgan strategiyasida mehnatga qodir har bir inson o'z qobiliyatlarini o'stirishi va o'z mehnat tarzini ta'minlashi uchun sharoitlar yaratishi nazarda tutiladi¹.

Ish bilan bandlik xarakteri kishilarning mulkiy maqomiga bog'liq bo'ladi. O'tish davrida mehnat resurslarining ukladlararo erkin taqsimlanishi bo'lib tursada, turli ukladlardagi bandlik darajasi, bandlikning daromad keltirishi va qanchaga tushishi bir xil emas, albatta. Bu tabiiy ravishda ukladlardagi korxonalar

¹Boltaboyeva L. Demografik muhitning ish bilan bandlik darajasiga tasiri. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, - T.: 2003. 4-son -42 b.

salohiyatiga, ularning bozor bilan ta'minlanishiga, umumiy iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Bir uklad uchun bandlik sharoiti qulay bo'lgani holda, boshqasi uchun noqulay bo'ladi¹.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan, ishchi haqi darajasi ishchi kuchining muvozanatlashgan narxidan yuqori o'rnatilganda, taklifning talabga nisbatan ko'pligi paydo bo'ladi, talab oshgani sari ish haqi ham oshadi, talab kamaygan sari esa, ish haqi ham kamayadi.

Hozirgi vaqtgacha mavjud bo'lgan ish bilan bandlikning tarmoq tuzilishi jamiyat mehnat potensialidan foydalanish samaradorligining darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o'zgartirishga muhtojdir.

Ish bilan bandlikdagi tarkibiy tanazzulning bevosita oqibatlari, aqliy mehnat kishilarining boshqa mamlakatlarga ketib qolishi – ilm-fan sohasidan va ilmiy bilimlar ko'proq talab qilinadigan ishlab chiqarish tarmoqlaridan xodimlarning vositachilik sohaslariga, shuningdek, malakasini yo'qotib, norasmiy faoliyat sohaslariga o'tib ishlashidir. Qayd qilingan ishsizlik darajasidagi tarkibiy orqaga ketish Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari mijozlari orasida mutaxassislar ulushining yuqori ekanligida namoyon bo'lmoqda. Holbuki, kadrlar potensialini, ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarni shakllantirish uzoq vaqtni hamda mablag'ni talab qiladi².

Mehnat bozorining asosiy indikatorlaridan biri ishlovchilarning ishga joylashish ko'rsatkichidir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, ishga joylashganlar sonining ham mutlaq, ham nisbiy ko'rsatkichlarning oshayotganligini mehnat bozoridagi ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin. Tajribaning ko'rsatishicha mamlakat mehnat bozoridagi talab asosan malakasiz mehnatga yo'naltirilgan degan fikrni qisman tasdiqlaydi. Ishlovchilar orasida ish joyini tez-tez o'zgartiradigan, hamda uncha yuqori malakaga ega bo'lmaganlarning ko'pligi mehnat bozoridagi vaziyatni keskinlashtiradigan holatlardan biridir. Ishchi kuchining qayta taqsimlanishi, uning mehnat bozoridagi harakatiga,

¹ Vohobov A. V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. -T.: "Moliya" 2002. 220-221 b.

² Abduraxmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti (Nazariya va amaliyot). -T.: "Mehnat" 2004, -290 b.

binobarin, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi miqdor-sifat jihatidan muvofiqlikka erishish ko'lamlariga bevosita ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangicha sharoitlarini shakllantiradigan makroomillarga bog'liq¹. Shuning uchun ham ishsizlik miqyosining haddan tashqari oshib ketishining oldini olish va ishsizlarni ishga joylashtirishga yordam berishning samarali tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirishning birdan-bir vositasi investisiyalar samaradorligini ta'minlashdir. Mehnatga bo'lgan talabning navbatdagi omili o'zaro bir-birini to'ldiradigan mehnat resurslari bilan bog'liqdir. Agar bitta stanokni xodim boshqarsa va bu xildagi stanoklar narxi oshsa, u holda bu stanoklarda ishlaydigan ishchilarga talab boshqa teng sharoitlarda pasayadi va aksincha bo'ladi.

Amaliyotda inflyasiya ko'rsatkichlari bilan aholini ish bilan samarali bandligi o'rtasida teskari mutanosiblik mavjud. Inflyasiya sharoitida, daromad solig'i yukining yashirin, norasmiy oshishi yuz beradi. Inflyasiyasiz va daromad solig'i chegaralarini qayta ko'rib chiqmasdan, kompensasiya qilish maqsadida oylik ish haqini 10 foiz oshirish daromad solig'idan tushadigan tushumlarni 16 foizga ko'taradi, demak soliqlarning real oshishi 6 foizga teng. Bunday holat fiskal nuqtai-nazaridan olib qaralganda davlat uchun inflyasiyaga nisbatan iltifotli bo'lishga rag'bat tug'diradi. Lekin bu yerda quyidagilarni nazardan qochirmaslik kerak, ya'ni bu hodisaning teskari tomoni ham mavjud – ishchilar real daromadining mos ravishda qisqarishi, talab to'lov qobiliyatining pasayishi, bu tovar aylanishining kamayishiga olib keladi va oxir – oqibatda ishlab chiqarish qisqaradi². Bu esa, mehnat bozorida ish kuchiga bo'lgan talabni pasayishiga rag'bat bo'luvchi inflyasion moyillikni vujudga keltiradi.

¹ Isroilova D. Mehnat bozorining shakllanish tendensiyalari. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003. №10. 60-61 b.

² Yusupov M. Soliq siyosatini takomillashtirishning dolzarb muammolari // Bozor, pul va kredit. 2008. 2-son, -14 b.

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni dinamikasi (ming kishi hisobida)*

Hududlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+,-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Buxoro	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Jizzax	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Qashqadaryo	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Navoiy	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Namangan	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Samarqand	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Sirdaryo	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Surxondaryo	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Toshkent	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Farg'ona	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Xorazm	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Toshkent sh.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Respublika bo'yicha	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish,

global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.¹

Demografik jarayonlarga bog'liq holda, yurtimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda (1.1-jadval).

1.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillar davomida mehnat resurslari soni 2090,2 ming kishiga yoki 13,7 foizga ortgan. Bu davrda mehnat resurslari sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil qilgan.

1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi

(ming kishi hisobida)*

Hududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Buxoro	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Jizzax	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Qashqadaryo	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Navoiy	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0
Namangan	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Samarqand	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Sirdaryo	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Surxondaryo	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Toshkent	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Farg'ona	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Xorazm	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Toshkent sh.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Respublika bo'yicha	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-beتلar

Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (1.2-jadval).

2007-2010 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 10735,4 ming kishidan 11919,1 ming kishiga yoki 11,0 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda esa past bo'lgan.

Aholi bandligini ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etish muammolarini izchil hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band aholi soni 2,5 foizga o'sdi va deyarli 11,9 million kishiga yetdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi band bo'lgan kishilar ulushi 79,4 foizni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 foizni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o'sish sur'atlari qurilishda (105,2 foiz), uy-joy-kommunal xo'jaligida va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda (105,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (105,0 foiz), transport va aloqada (104,4 foiz) qayd etildi.

Umuman olganda, respublika va uning alohida hududlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni ortmoqda (1.3-jadval).

1.3-jadval ma'lumotlarining tahlili O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 2551,7 ming kishidan 2779,8 ming kishiga yoki 8,9 foizga o'sganini ko'rsatadi. Bunday tendensiya respublikaning barcha hududlarida ham kuzatilgan.

1.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi(ming kishi hisobida)*

Hududlar	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi soni			Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	145,9	160,1	109,7	104,1	109,7	105,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	176,4	207,5	117,6	197,3	209,7	106,2
Buxoro	161,5	165,6	102,5	140,8	144,0	102,2
Jizzax	68,2	80,6	118,1	84,7	100,8	119,0
Qashqadaryo	201,5	231,4	114,8	149,3	172,6	115,6
Navoiy	150,6	165,4	109,8	56,6	59,4	104,9
Namangan	160,5	171,8	107,0	148,9	142,6	95,7
Samarqand	228,1	228,7	100,2	218,9	250,7	114,5
Sirdaryo	58,6	68,7	117,2	72,6	93,9	129,3
Surxondaryo	140,3	162,8	116,0	175,4	193,6	110,3
Toshkent	256,4	274,4	107,0	191,1	206,4	108,0
Farg'ona	266,8	299,8	112,3	222,0	286,8	129,1
Xorazm	118,6	125,2	105,5	161,2	146,7	91,0
Toshkent sh.	418,0	437,6	104,6	171,1	221,5	129,4
Respublika bo'yicha	2551,7	2779,8	108,9	2094,3	2338,4	111,6

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi bandligi tarkibida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat

sektori hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib (2011 y) mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmoqda.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1991 yilda mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish sohalarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.

1.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatida va dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi (ming kishi hisobida)*

Hududlar	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lisenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni			Dehqon xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,6	29,8	647,8	103,9	96,7	93,0
Viloyatlar:						
Andijon	12,3	61,0	495,9	170,1	177,8	104,5
Buxoro	8,9	49,5	556,1	129,4	151,4	117,0
Jizzax	4,7	23,3	495,7	63,4	98,1	154,7
Qashqadaryo	10,5	43,8	417,1	128,6	150,2	116,7
Navoiy	5,7	25,8	452,6	49,4	60,8	123,0
Namangan	13,0	66,8	513,8	95,4	114,6	120,1
Samarqand	12,5	65,0	520,0	148,3	188,8	127,3
Sirdaryo	2,5	10,8	432,0	26,8	60,2	224,6
Surxondaryo	6,3	27,6	438,0	129,8	153,6	118,3
Toshkent	12,2	65,9	540,1	177,4	190,6	107,4
Farg'ona	17,8	99,1	556,7	168,2	192,7	114,5
Xorazm	5,5	23,8	432,7	81,5	106,0	130,0
Toshkent sh.	24,2	105,9	437,6	0	6,2	-
Respublika bo'yicha	140,8	698,4	496,0	1472,5	1745,0	118,5

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007 yildagi 2094,2 ming kishidan 2011 yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkichni respublika hududlari bo'yicha tahlil qilish uning bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Jumladan, o'tgan besh yil davomida kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Toshkent shahri, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda mazkur sohada ish bilan band bo'lganlar soni Xorazm (9,0 foiz) va Namangan (4,3 foiz) viloyatida kamaygan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko'paytirishda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois bu sohada ish bilan band bo'lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda (1.4-jadval).

1.4-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillarda respublika bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin lisenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan.

Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

– mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 foizga ortgan.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

Umummilliy ish bilan bandlik xizmatlari muayyan mehnat bozori segmentini (bo'lagini) tartibga solib turadi. Mamlakatlarning rivojlanish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, bo'sh ish joylarining unchalik ko'p bo'lmagan qismi ular yordamida to'ldiriladi, lekin ular birmuncha past va o'rtacha malaka talab qiladigan ish o'rinlaridir. Masalan, Shvesiyada ish qidirayotganlarning qariyb 35% Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari bilan aloqaga kirishadi, Fransiyada ish qidiruvchilarning qariyb 15%, AQShda esa 5%ga yaqini ular xizmatidan foydalanadi. Hisoblab chiqilishicha, ish qidiruvchilarning ko'pchiligi (50%dan ortig'i) ish joylari haqidagi axborotlarni do'stlari yoki qarindoshlaridan oladi.

Davlat ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga quyidagilarni kafolatlaydi:

– ishsizlik nafaqasini to'lash;

– mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;

– ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;

– haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;

– mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari tarkibiy qismlarining faoliyatida ish kuchiga bo'lgan talabni oshirish bo'yicha davlat siyosatini bajarishga qarab mexanizmning ishlab chiqilishi oqilona ish bilan bandlikni ta'minlash sharti hisoblanadi.

Tashkiliy jihatdan mehnat bozori ijtimoiy institutlar tizimi sifatida maydonga chiqar ekan, mazkur bozorda bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishida muhim tashkiliy tuzilmalar majmui hisoblanadi. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishning asosiy maqsadlari mehnatdan foydalanish muammolari, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir.

Yuqorida respublikamizda ish bilan bandlik holati bo'yicha mehnat va ijtimoiy-siyosat sohasidagi ba'zi kamchiliklar bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishiga teskari mutonasiblikda ta'sir etuvchi omillardir.

Amaliyotda aholining oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi. Bunday muvozanat ish beruvchilar va "mehnat qobiliyati" kishilarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasbiy malaka tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli, aholining oqilona ish bilan bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida "mehnat qilish qobiliyati"ni bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi ham ta'minlanadi¹.

Yuqorida tushuncha nuqtai nazaridan qaraganda respublikamizda aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga ham to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagi sabablar asosiy to'siq bo'lmoqda: davlat mulkini xususiylashtirish samaradorligining past darajasi; iqtisodiyotda tubdan tarkibiy islohotlarning

¹ Xolmo'minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish // Dis. ... i.f.d.- T.: 1998. -60 b.

sekinlik bilan borishi; mehnat haqining uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy-texnika jihozlar bilan ta'minlanishi; ishchi kuchi taklifini unga bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida ishonchli axborotlarning kamligi va mehnat bozorining samarali tartibga solish mexanizmi takomillashmaganligi¹.

Mehnat bozorining mehnat munosabatlarini tartibga solishning samarali mexanizmini takomillashmaganligi bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirishga va buning natijasi o'laroq aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholining oqilona ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ish kuchiga mehnat haqini (narxini) eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlar ish bilan bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va safarbarligini oshirish, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

O'zbekistonda zamonaviy mehnat bozori hali tarkib topish jarayonidadir. U hali mezon asosida o'zining yaqqol qiyofasiga ega bo'lib ulgurganicha yo'q. Bu jihatdan uni birinchi turga intiluvchi aralash mehnat bozori deb atash mumkin.

Mazkur bozorning shu jihatlarini e'tiborga olgan holda uning infratuzilmasi rivojlanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; mehnat bozorining sifat ko'rsatkichlarini ta'minlash; aholining ish bilan bandligiga oid axborotlar tizimini takomillashtirish; kadrlarning kasbiy harakatchanligi va eksportabelligini rivojlantirish; ishsizlikni kamaytirish; malakali mehnat bozorini shakllantirish va boshqalar².

¹ Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma). -T.: 2004. -20 b

² Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. Diss. i.f.n. T., 2008. -B. 47.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni, mulkchilikning turli xil shakllari, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning hajmi; ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum miqdori, aholining migrasion oqimi, eksport qilingan ishchi kuchi salmog'i; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi, mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, mehnat bozori institusion tuzilmalari samaradorligi, samarali va egiluvchan mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish; malakali kadrlardan foydalanish samaradorligi; malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy-texnik ta'minot, oliy va o'rta toifadagi mutaxassislar salmog'i; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqa miqdori, yangi ishga joylashtirish, xizmat bo'yicha boshqa ishga o'tish munosabati bilan qayta tayyorgarlik, yangi ish joyiga ko'chirib keltirish; mehnat bo'limida hisobda bo'lgan bo'sh ish o'rinlari va lavozimlarining to'liq ro'yxati, mehnat bo'limida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha ma'lumotlar, ishsizning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi to'liq axborot, ish beruvchilar to'g'risidagi axborot, yangi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlari to'g'risidagi axborot, mulkchilikning turli xil shakllari va h.k.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga layoqatli aholining oqilona ish bilan bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini, tegishli maqsadli kompleks dasturini hamda kompleks tahlili va istiqbolini belgilashning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tadbiq etishda foydalanish mumkin.

1.3. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining xorij tajribasi

Respublikamiz Konstitusiyasiga muvofiq, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilmoqda.

Ma'lumki, Yevropaning Shvesiya va Avstriya kabi mamlakatlarida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli yetarli darajada to'liq ishlab chiqilgan.

Shvesiyaning har bir guberniyasida ish bilan bandlik bo'yicha Guberniya Qo'mitasi faoliyat yuritadi hamda quyidagi 4 ta masalalar bo'yicha ish olib boradi: Boshqaruv, nazorat, tahlil va aloqalar.

Guberniya Qo'mitasi mehnat birjalarini va mehnat birjalari qoshidagi institutlarni boshqaradi.

Har bir mehnat birjasi o'zining hududida ishsizlarga ham ish beruvchilarga ham xizmat ko'rsatadi. Barcha birjalarda axborot tizimlari xizmat ko'rsatadi. Har bir guberniyada kasbga yo'naltirish bo'yicha maxsus mehnat birjalari amal qiladi. Turli sohalarda, masalan, turizm, qurilish, transport, restoran tadbirkorligida ixtisoslashgan mehnat birjalari har xil turdagi va yo'nalishlarda faoliyat yuritadilar: doimiy, vaqtinchalik, xorijiy, mavsumiy va boshqalar.

Mehnat birjalari o'quv yurtlari bilan chambarchas aloqadorlikda ish bilan bandlik sohasida faoliyat olib boradi.

Mehnat birjalari qoshidagi institutlar nogironlar, jismoniy jihatdan nuqsonga ega shaxslar, ya'ni ish topishi qiyin bo'lganlar uchun faoliyat yuritadi. Bu institutlar davlat sug'urta kompaniyalari bilan ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi sohasida hamkorlik qiladi. Mehnat birjalari qoshidagi institutlarning vazifasi-nogironlarni kasbga tiklash va ularga ish topishga yordamlashishdan iborat bo'lib, mijozlar bu yerga boshqa davlat organlari, ijtimoiy xizmat organlaridan kelishadi. 50% mijozlar ishsizlik nafaqasini, qolganlari kasallik bo'yicha yoki, ijtimoiy nafaqalarni olishadi.

Mehnat birjalari qoshidagi institutlarning bosh maqsadi – mijozlarni mehnat bozoriga chiqish imkoniyatini ta'minlashdir. Maslahatchilar har bir mijoz bilan alohida ishlaydilar, ular mehnat bozorida mehnat vositachiligi va kasbga yo'naltirish bilan shug'ullanadilar. Mehnat birjalari qoshidagi institutlarning ikkinchi mutaxassislar guruhi-psixologlar, ijtimoiy maslahatchilar, fizioterapvtlar,

ergonomlar hisoblanadi. O'rtacha har oyda ushbu institutlarga 100 ta mijoz murojaat qiladi, shundan 50 nafari o'rta hisobda 1 oydan so'ng ishga joylashadi.

Ish bilan bandlik xizmatining byudjeti hukumat Parlamentining roziligi asosida shakllantiriladi. Shvesiyada hech qanday alohida byudjetdan tashqari jamg'armalar yo'q. Tadbirkorlar ish haqi jamg'armasidan 38% miqdorida yagona soliq to'laydilar.

Ishsizlik nafaqalari boshqa manbalar hisobiga to'lanadi. Nafaqa miqdori ishsizni hisobga qo'yish vaqtiga bog'liq bo'lmay, balki ishni yo'qotishdan oldingi daromadiga bog'liqdir va uning 80% ini tashkil etadi. Nafaqa miqdorining chegarasi- taxminan 15 ming shved kronini tashkil etadi. Agar korxonalar ishsizni ishga qabul qilsa, qabul qilingan kundan boshlab 36 hafta mobaynida u soliq bo'yicha chegirmaga ega bo'ladi¹.

Avstriya Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchun an'anaviy xususiyatga egadir. Ish bilan bandlik xizmatining tepasida kuzatish kengashi turadi. U kasaba uyushmalari va federal parlament vakillari, sanoatchilar ittifoqi va ish beruvchilar hamda federal hukumat vakillari o'rtasidagi teng munosabatlarni nazorat etadi. Hududiy va joylardagi Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari boshqaruv organlari tuzilmaviy darajalari deyarli bir xil.

Yaqin davrlardan boshlab Avstriyada katta yoshdagi mehnatga layoqatli kishilarning muddatdan oldin pensiyaga chiqarilishi tendensiyasi kuzatildi. Bugungi kunga kelib yondashuv o'zgarimoqda, pensiya arafasi yoshidagi fuqarolar jamiyatga arzon tushishi maqsadida, muddatdan oldin pensiyaga chiquvchilarga to'lovlarni kamaytirish uchun Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari orqali yollanish bo'yicha ishga jalb qilinmoqda.

Shuningdek, yuqori darajada e'tibor nogironlarga ajratilgan, mamlakatda ularning mehnatidan foydalanuvchi korxonalar kam emas. Bunday korxonalarining maqsadi mehnat bozorida ularning mehnatidan to'liq foydalanish hisobiga ularga yordam berishdir. Muvofiq ishlab chiqarishni tashkil qilishda nogiron o'zining

¹ Барр Н. Рынок труда и социальная политика в Центральной и Восточной Европе. М. 1997. с.145-148.

yarim mehnat kuchi bilan mehnat qilishi mumkin. O'zining yarim ish haqi miqdoridagi daromadiga ega bo'lgandan so'ng, qolgan qismini ijtimoiy to'lovlar sifatida davlatdan oladi.

Avstriya federal bandlik xizmati organlari tomonidan ijtimoiy-mehnat sohasidagi turli tadbirlar va loyihalarning ishlab chiqilishi ma'lum hududdagi aholining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va tarixiy an'alarini hisobga olib amalga oshiriladi. Agarda taklif etilayotgan loyiha yangi ish joylarini yaratish bo'yicha holatlarga muvofiq kelmasa, yoki qarama-qarshi sabablarni yuzaga keltirsa, albatta u rad etiladi¹.

Nogironlar bilan ishlash tajribasidan respublikamizda foydalanish, bu toifa kishilarining mehnat bozorida kasbiy harakatchanligini oshiradi.

Avstriya misolida. Bandlikka ko'maklashuvchi tashkiliy tuzilmalar faoliyati ustidan kuzatuv kengashining nazorat o'rnatishi, ijtimoiy hamkorlik mexanizmini teng munosabatlar asosida rivojlanishini ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarning ish bilan bandlik sohasidagi tajribasidan ma'lumki, Internet tarmog'idagi Vertual agentliklar xizmatidan bepul foydalanish bilan birga pullik ma'lumotlar bazasidan foydalanish ham keng yo'lga qo'yilgan. Bizda hali Internet orqali ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi bo'yicha ma'lumotlar bazasidan foydalanishda pullik xizmatlar amalda yo'q, shuningdek, MDH davlatlarida ham.

Internetning ma'lumotlar bazasida ish izlovchilar to'g'risidagi to'liq qimmatga ega bo'lgan va yetarlicha axborotlar hamda keng miqiyosdagi ko'p omilli izlash imkoniyatlari joylashtiriladi. Ish beruvchi pullik xizmatlar uchun haq to'lash asosida o'zini qiziqtirgan nomzodning adresini internetning «ishchi saytlari»dagi ma'lumotlar bazasidan izlashi orqali topishi mumkin.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari xodimlari, kadrlar agentligi rahbarlari bilan o'tkazilgan og'zaki so'rovlar natijalari shuni ko'rsatdiki, internet tarmog'idagi ma'lumotlar bazasidan foydalanish bo'yicha pullik xizmatlar

¹ Барр Н. Рынок труда и социальная политика в Центральной и Восточной Европе. М. 1997.-С 150-152.

to'g'risida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Qarshi fikrni bildirganlar bo'yicha:

- nomzodlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar va ishga yollashdagi kafolatlarning yo'qligi;

- ko'pchilik ish beruvchilar qandaydir ma'lumotlar bazasidagi nomzodlarga emas, balki kadrlar agentligi orqali malakali mutaxassisni yollash bo'yicha murojaat qilishni ma'qul ko'radilar.

Internetning ma'lumotlar bazasidan foydalanishni to'lovli xususiyatga ega ekanligini qo'llab quvvatlovchilar fikriga ko'ra:

- o'nlab xorijiy pullik virtual agentliklarning samarali faoliyatlarining ta'minlanishini misol sifatida keltirish mumkin;

- bepul Internet xizmatlari chegaralangan, chunki malakali mutaxassislar hech qachon bepul Internetga o'zlarining rezyumelarini joylashtirmaydilar;

- pullik virtual agentliklari xizmati kadrlar agentligi xizmatiga nisbatan ancha arzondir, shunday ekan talab virtual agentliklarga oshadi. Shunday qilib, pullik virtual agentliklar mijozlarning vaqtini va pulini tejash imkoniyatini yaratadi.

Biz o'ylaymizki, yaqin kelajakda virtual agentliklar faoliyat hajmining kengayib borishi natijasida Internet tarmog'ida turli xil testlar va videokameralar orqali ish bilan bandlik bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri muloqotlarning o'tkazilishi mehnat bozori infratuzilmasida sifat ko'rsatkichlar oshishiga sharoit yaratadi. Tadqiqotlar natijalari bo'yicha tijorat bandlik xizmatlari haqidagi axborot tahlillari shuni ko'rsatdiki, nodavlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining ustun yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Tashkilotlar va korxonalar uchun xodimlarni tanlash. Bu yo'nalishda xodimlarni tanlash bo'yicha imtc & Metropolis Samarqand Kadrlar Agentligi o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Agentlik xodimlarni tanlash xizmatidan tashqari maslahat xizmatlarini ham ko'rsatadi.

Har bir agentlik tijorat mehnat birjalari singari malaka yoki kasbiy tanlashga bog'liq holda ixtisoslashgan va universal bo'lishi mumkin.

Tijorat mehnat birjalari ham shunday xizmatlarni ko'rsatadi va ularning mijozlari bo'lib fuqarolar, ish izlovchilar, ish beruvchilar hisoblanishadi.

2. Ish izlovchi fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi.

Bu yo'nalishda ixtisoslashgan va universal tijorat birjalari faoliyat yuritadilar. Birjalarning ixtisoslashishi aniq aholi guruhlari bilan yoki birorta kasbiy guruhlar bilan ishlashdan iborat.

3. Ish bilan bandlik sohasida maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlari o'rtasida mehnat vositachiligi sohasida o'zaro hamkorlikning o'rnatilishi muhim ahamiyatga egadir.

Biroq, Samarqand viloyatida turli yo'nalishlarga asoslangan ixtisoslashgan mehnat birjalarining shakllanmaganligi, bu masala bo'yicha davlat va nodavlat Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari o'rtasida o'zaro hamkorlik ta'minlanmaganligini ifodalaydi.

Shunday qilib turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan mehnat birjalarini shakllantirish va ular o'rtasidagi erkin raqobatchilik muhitini yuzaga keltirish mehnat sohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga asos yaratadi.

II-BOB. SAMARQAND VILOYATIDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLARI FAOLIYATINING HOLATI

2.1. Aholini ish bilan bandligi holati tahlili

Samarqand viloyati iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi. Ana shunday salohiyat yildan-yilga ortib va mustahkamlanib, viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlashga, aholini ish bilan yuqori darajada ta'minlanganligini, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "... iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta"¹.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida mehnat bozorini samarali faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bozor iqtisodiyoti tizimidagi alohida o'rni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mehnat bozorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini aholini ish bilan bandligini ta'minlash shaklida ifodalash mumkin.

Erkin iqtisodiy islohotlar sharoitida ish bilan bandlik va ishsizlik bir biriga tez almashinishi mumkin. Samarqand viloyatida aholini ish bilan bandligini ta'minlashning hududiy xususiyatlari va ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talabi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi. Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish iqtisodiyotni yangilash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. "Xalq so'zi" gazetasi. 2010 yil 30 yanvar, №21 (4936).

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni ortib bormoqda (2.1-jadval).

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)*

Hududlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+,-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,2	41,9	42,2	44,5	41,7	0,5	101,2
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	63,2	64,1	65,6	65,1	64,6	1,4	102,2
Buxoro	33,4	33,6	40,9	40,0	40,3	6,9	120,6
Jizzax	15,4	15,5	21,8	22,0	21,5	6,1	139,6
Qashqadaryo	47,9	47,9	57,0	56,6	56,2	8,3	117,3
Navoiy	20,3	20,3	20,9	20,1	20,5	0,2	100,9
Namangan	46,7	46,7	49,3	48,3	48,5	1,8	103,8
Samarqand	64,4	65,3	75,2	74,8	74,1	9,7	115,0
Sirdaryo	12,8	12,8	14,8	14,4	14,6	1,8	114,0
Surxondaryo	35,3	35,4	47,0	46,1	46,3	11,0	131,6
Toshkent	44,9	44,9	47,9	47,4	47,3	2,4	105,3
Farg'ona	71,6	72,6	72,5	77,1	71,4	-0,2	99,7
Xorazm	28,1	28,0	35,1	33,6	34,6	6,5	123,1
Toshkent sh.	36,7	38,6	41,2	38,0	40,6	3,9	110,6
Respublika bo'yicha	563,8	567,7	631,5	628,2	622,4	58,6	110,4

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillarda O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni 563,8 ming kishidan 622,4 ming kishiga yoki 10,4 foizga ortgan. Ko'rilayotgan davrda ish

bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati bir me'yorda kechmagan. Xususan, 2007-2009 yillarda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni 563,8 ming kishidan 631,5 ming kishiga yoki 12 foizga ortgan bo'lsa, 2010 yilda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi sonining kamayishi kuzatilib, 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 1,5 foizga qisqargan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlari ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining asosiy qismini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilishini ko'rsatadi. Jumladan, 2007 yilda respublika bo'yicha jami ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining 95,3 foizini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 97,7 foizga teng bo'lgan. Ko'rilayotgan davrda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar ulushi mos ravishda 4,7 va 2,3 foizga teng bo'lgan.

Shunday qilib, ish izlab mehnat muassasalariga murojaat qilganlar, ish bilan ta'minlanganlar soni yildan-yilga oshib, ishsizlar soni va darajasi pasayib borishi ko'zga tashlanadi. Buning asosiy sababi:

- iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholining o'sib borishi;
- mehnat resurslarining o'sishi, mehnat muassasalari xizmati yaxshilanishi, ularga ish izlab murojaat qilayotganlar sonining oshishi;
- mehnat muassasalari taklif etayotgan ko'plab bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi, fuqarolarni ishga joylashtirish faoliyatining yaxshilanishi va buning natijasida ish izlab murojaat qilganlar aksariyat qismining ish bilan ta'minlanishi.

O'zbekiston Respublikasida Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlariga ish so'rab murojaat qilganlarni ishga joylashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. 2007-2011 yillarda Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni 18,6 foizga, ishga joylashtirilganlar soni esa 5,3 foizga ortgan. Shu o'rinda aytish joizki, ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashganlar ulushi 87,3 foizdan 90,1 foizga ko'paygan (1.6-jadval).

2.2-jadvalda keltirilganidek, 2007-2011 yillar davomida respublika bo'yicha haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar soni 79,5 foizga ortgan. Tahlillar bu davrda Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashqari barcha hududlarda haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar sonining ortganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 iyuldagi "Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida"gi 353-son qaroriga asosan, haq to'lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

- ish qidirayotgan shaxs sifatida mehnat organlarida ro'yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish haqi (mehnat daromadi) olishi va ish qidirayotgan davrida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat organlari tomonidan ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish;

- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mehnatga qayta tiklash;

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

Bozor munosabatlari sharoitida ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish – to'la va samarali ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi eng muhim omillardan biri bo'lib, unga aholini ijtimoiy himoya qilish choralarining bir turi sifatida qaraladi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublikada kasbga tayyorlashga

yuborilgan fuqarolar soni 2007 yildagi 13676 nafardan 2011 yilda 26239 nafarga yoki 91,8 foizga ortgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan va kasbga tayyorlashga yuborilgan fuqarolar sonidynamikasi (kishi hisobida)*

Hududlar	Haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar soni			Kasbga tayyorlashga yuborilgan fuqarolar soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4461	3406	76,3	317	972	306,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1379	4929	357,4	1288	2735	212,3
Buxoro	1475	3680	249,5	778	1707	219,4
Jizzax	1208	1862	154,1	700	840	120,0
Qashqadaryo	3324	4349	130,8	695	1385	199,2
Navoiy	790	1927	243,9	495	982	198,3
Namangan	3474	3597	103,5	501	802	160,0
Samarqand	1633	5500	336,8	555	1072	193,1
Sirdaryo	728	3255	447,1	489	1966	402,0
Surxondaryo	918	1241	135,1	329	721	219,1
Toshkent	1273	4273	335,6	1028	2218	215,7
Farg'ona	3071	6273	204,2	1735	3126	180,1
Xorazm	1771	2587	146,0	934	1273	136,3
Toshkent sh.	2122	2729	128,6	3832	6440	168,0
Respublika bo'yicha	27627	49608	179,5	13676	26239	191,8

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Respublikada ishga joylashishga muhtoj aholini bir martalik ishga jalb qilish ishlari ham yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu faoliyatning mohiyati shundaki, o'z mehnat layoqatini qisqa muddatli (to'liq bir ish kunida yoki to'liqsiz bir ish kunida, ikki yoki undan ortiq, lekin bir oydan kam ish kunida) ishga sarflash

istagida bo'lgan fuqarolarga mehnat muassasalari ish beruvchi va yollanma ishchini bir-biri bilan uchrashtirish va kelishib olishlariga ko'maklashmoqda.


O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi «Aholini bandligini oshirish xamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-616 – sonli Qarori, xamda Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 8 maydagi 95-sonli «2007 yil 6 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK–616- sonli «Aholi bandligini oshirish , xamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida» gi Qarori asosida ishlab chiqilgan bo'lib, tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashuvchi Markazining vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatining tashqiliy asoslarini belgilab beradi.

Samarqand viloyati iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi. Ana shunday salohiyat yildan-yilga ortib va mustahkamlanib, viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlashga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "...O'zbekiston jadal o'sishga yerishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir"¹.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida davlat ish bilan bandlik siyosati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida mehnat potensialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilishi zarur. Bozor munosabatlari sharoitida aholini ish bilan bandligi va ishsizligi bir-biriga tez almashinishi mumkin.

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

Viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etishda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining ahamiyati kattadir. Chunki viloyatda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi. Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Davlat ish bilan bandlik xizmati va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Samarqand viloyatida 2011 yilda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishi bu hech shubhasizki, viloyatda yaratilgan yangi ish o'rinlari va unda band bo'lgan aholiga davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizasiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy

ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi"¹.

Samarqand viloyati aholisi 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 3197,2 ming kishiga yetdi. Viloyati aholisi 2007 yilda 3015,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 2007 yilga nisbatan 6,0 % ga o'sgan.

Samarqand viloyatda mehnat resurslari salmog'i 2007 yilda 1662,4 ming kishi bo'lib, 2011 yilda 1794,6 ming kishiga yetgan. Bu ko'rsatkich 2007 yilga nisbatan 2011 yilda 8,0 %ga o'sgan. Ish bilan band bo'lgan aholi soni 2007 yilda 1115,7 ming kishi, 2011 yilda 1271,0 ming kishiga yetgan yoki mos davrga nisbatan 13,9 %ga o'sishi kuzatildi.

2.3-jadval.

Samarqand viloyatida mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligi holati

(ming kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2007-2011 yillarda o'sishi (% da)
Aholi soni	3015,2	3046,2	3102,5	3140,2	3 197,2	106,0
Mehnat resurslari	1662,4	1698,2	1720,1	1742,3	1794,6	108,0
Ish bilan band bo'lganlar	1115,7	1141,5	1160,8	1229,9	1271,0	113,9
Jami ish o'rinlariga talab	49,8	49,4	59,0	62,5	68,3	137,1
Ishsizlik darajasi (%da)	5,4	5,1	4,0	4,8	4,7	-

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tahlillardan ko'rinadiki, jami ish o'rinlariga talab 2007 yilda 49,8 ming kishi bo'lsa, 2011 yilda 68,3 ming kishiga o'sgan yoki 2007 yilga nisbatan 2011 yilda 37,1 %ga o'sish tendensiyasiga ega. Jami ish o'rinlariga bo'lgan talab

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009 – 31-bet.

viloyatda 2007-2008 yillarda biroz kamayib, 2009 yildan boshlab o'sish tendensiyasiga ega.

Samarqand viloyatida ishsizlik darajasi 2007 yilda 5,4 %, 2011 yilda esa 4,7 %ga teng bo'lib, ko'rilayotgan davrda bu ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga ega.(2.3-jadval).

Respublikada ishga joylashishga muhtoj aholini bir martalik ishga jalb qilish ishlari ham yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu faoliyatning mohiyati shundaki, o'z mehnat layoqatini qisqa muddatli (to'liq bir ish kunida yoki to'liqsiz bir ish kunida, ikki yoki undan ortiq, lekin bir oydan kam ish kunida) ishga sarflash istagida bo'lgan fuqarolarga mehnat muassasalari ish beruvchi va yollanma ishchini bir-biri bilan uchrashtirish va kelishib olishlariga ko'maklashmoqda.

2.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatining tahlili

Davlat ish bilan bandlik siyosatini ancha samarali va maqbul yo'nalishi - faol ish bilan bandlik siyosati bo'lib, ishchi kuchiga talabni oshirish maqsadida davlat ish bilan bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobiga ish joylarini yaratish, korxonalariga qo'shimcha ish joylarini yaratish maqsadida kreditlar berish yo'li bilan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Ishchi kuchiga talabning taqchilligi sharoitida mehnat bozori holatining tahlili shuni ko'rsatdiki, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar fuqarolarni aniq ishlarga tayyorlashi zarur.

Shunday ekan, davlat ish bilan bandlik xizmatining Dasturi mehnat bozorida faol ish bilan bandlik siyosati doiralarini qamrab olishi zarur. Viloyat darajasida bu hududiy ish bilan bandlik Dasturi sifatida ifodalanadi.

Samarqand viloyati bo'yicha 2004-2011 yillar davomida «Aholini ish bilan ta'minlash Dasturi»ning bajarilishi quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan (2.4-jadval). 2.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2004-2011 yillar mobaynida jami davlat ish bilan banlik xizmati organlariga murojaat qilganlar hissasi 51,8%ga oshgan. Shuningdek, tuman (shahar) bandlikka

ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar bu davrlar mobaynida 63,4%ga o'sgan. Viloyatda 2004 yilda davlat ish bilan bandlik xizmati orqali ishga joylashganlar hissasi jami ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan 83,0% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilga kelib 89,6%ni tashkil etgan. Ishga joylashganlar hissasining ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan bu davrlar oralig'ida o'sib borish tendensiyasi ko'zatildi. Bunday o'zgarishlar asosan yangi va qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga amalga oshirilgan.

2.4- jadval

Samarqand viloyatida "Aholini ish bilan ta'minlash hududiy Dasturi"ning bajarilishi (kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2004-2011 y.y.da o'sish, (%)
BKM ga ish so'rab murojaat qilganlar	50255	50583	52184	53753	63880	64355	73021	76287	151,8
BKM lar yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar	41830	45244	47250	48708	58636	59020	65412	68360	163,4
Ishsiz maqomini olganlar	9153	4531	4369	4446	4797	5051	7609	6813	74,4
Kasbga o'qitish va malakasini oshirishga yo'naltirilganlar	1456	645	467	555	841	652	1056	1125	77,3
Haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'naltirilgan	4834	1771	1394	1633	2462	3245	5500	5609	116,0
Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar	2851	2091	2346	2149	1971	1154	1053	1116	39,1
Korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari	1682	1392	1425	1410	1396	3582	2690	2763	164,3

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ishsiz maqomini olganlar va ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar hissasi 2011 yilda 2004 yilgan nisbatan tegishli ravishda 74,4% va 39,1% larni tashkil etgan. Ish

bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat ish bilan bandlik jamg'armasining passiv yo'nalishlariga sarflanishining tejalishi ish bilan ta'minlashning faol yo'nalishlariga sarflanadigan mablag'larni moliyalashtirishni kengaytirish uchun manba bo'lib hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan keyingi yillarda ayniqsa, qishloq joylarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Samarqand viloyat aholisining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Viloyat qishloq tumanlarida 2011 yilda aholi soni 2705,1 ming kishi yoki 2005 yilga nisbatan (2423,0 ming kishi) 11,6 % ga o'sgan. Qishloq mehnat resurslari tahlil qilinayotgan davrda 17,5 % ga, iqtisodiy faol aholi 10,5% ga, ish bilan band bo'lganlar 13,1 % ga hamda iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar miqdori 46,6% ga ortgan. Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar ulushi esa tahlil qilinayotgan darlarda kmamyish tendensiyasiga (56,8%) ega.

2.5-jadval

Samarqand viloyatida 2005-2011 yillarda qishloq joylarida hisoblangan mehnat resurslari balansi (ming kishi)

№	Ko'rsatkichlar	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2005-2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Doimiy aholi soni	2423,0	2459,8	2553,8	2595,9	2630,5	2660,6	2705,1	111,6
2	Mehnat resurslari	1214,3	1232,7	1254,6	1286,1	1328,2	1403,4	1426,9	117,5
3	Shundan, iqtisodiy faol aholi	880,0	895,3	944,6	983,3	958,4	981,5	972,8	110,5
4	Ish bilan band bo'lganlar	831,3	844	876,9	902,8	984,3	927,9	940,4	113,1
5	Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar	493,9	501,4	530,4	580,2	659,8	702,2	724,1	146,6
6	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar	317,1	321,9	346,5	322,6	324,5	248,4	180,0	56,8

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Muallif har tomonlama samarali va istiqbolli ish bilan bandlik Dasturini tuzish maqsadida uning har bir bo'limi uchun ko'rsatilishi zarur bo'lgan davlat ish

bilan bandlik xizmati faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi va ular quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligiga ko'maklashish va ishsiz fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash.

a. Fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish.

b. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlash.

v. Ishsizlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlash.

2. Ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish.

a. Viloyatda ish kuchiga bo'lgan talabni ta'minlashda ish beruvchilarga ko'maklashish va hududlararo ish kuchini qayta taqsimlash.

b. Jamoat ishlarini tashkil etish.

v. Ishsizlarning tadbirkorlik tashabbusini rag'batlantirish va ko'maklashish.

2.6-jadval

Samarqand viloyati bo'yicha bandlik organlari tomonidan ishga joylashtirilgan ishsizlarning yoshi to'g'risida ma'lumot

	Yillar	2007	2008	2009	2010	2011	2006-2011 y.y.da o'sish, (%)
18 yoshgacha bo'lganlar	Jami	1027	1110	1283	1367	1486	144,7
	<i>Shundan, qishloq joylarida</i>	941	1006	1283	1367	1318	140,1
18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar	Jami	28686	31017	40492	39554	41502	144,7
	<i>Shundan, qishloq joylarida</i>	26273	28105	34941	33014	36816	140,1
30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar	Jami	17537	18963	17246	23349	25372	144,7
	<i>Shundan, qishloq joylarida</i>	16063	17182	17246	23349	22508	140,1
50 yoshdan yuqori yoshdagilar	Jami	0	0	48	1142	0	0
	<i>Shundan, qishloq joylarida</i>	0	0	24	1027	0	0

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3. Ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlarni kasbiy harakatchanligi (mobilligi) va raqobatbardoshligini oshirish.

a. Fuqarolarni kasbga o'qitishni tashkil etish.

b. Ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qiluvchilarni kasbiy yo'nalishlarini aniqlash va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.

4. Davlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishi.

Samarqand viloyati ish bilan bandlik xizmati organlari faoliyatlari bo'yicha yuqorida keltirilgan yo'nalishlarining tahliliy natijalariga fikrimizni qaratsak.

I.a. «Fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish» punkti bo'yicha.

2.7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda ish axtaruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish ulushi har yili oshib bormoqda. Yosh tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda fuqarolarni ishga joylashtirish tahlil etilayotgan davrlar oralig'ida barchasi 144,7% o'sishga ega bo'lgan, shundan qishloq joylarida esa 140,1% ortgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning yuksalish davrida ish bilan bandlik xizmati nafaqat yangi turdagi faoliyatlarga ishchi kuchini joylashtirish, balki mehnat resurslaridan maksimal darajada foydalanish, ishsizlarni qayta o'qitishni turli dasturlarini ishlab chiqish, zarur malakaga ega ishchilarni tanlab olish usullari va ishchi kuchiga talabni oshirish imkoniyatlari hamda shart-sharoitlariga ega bo'ladi. Iqtisodiyotning tanazzuli davrida, ish bilan bandlik xizmati organlari mehnat bozorining kan'yukturasidan kelib chiqqan holda aholining ish bilan bandligi muammolarining yechimi to'g'risida maqbul takliflarni berishi mumkin. Mehnat bozorini tahlil qilishda ish bilan bandlikka ko'maklashish doirasidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ish bilan bandlik xizmatining samarali faoliyatini baholash, ish bilan bandlik siyosati yo'nalishlarini ishlab chiqish, balki ish bilan bandlik muammolari bo'yicha yangi yechimlarni taklif qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

2.7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida ish qidiruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish 2007-2011 yillar mobaynida muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich mazkur yillar oralig'ida 165,7 %ga

oshgan. Shundan, o'quv yurtlarini bitirganlar ichida o'rta maxsus kasb hunar kollejlari bitirganlarning ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichi tahlil etilayotgan yillar ichida eng yuqori ko'rsatkichga, ya'ni 7 barobarga oshgan. Yosh tarkibi bo'yicha esa mazkur davrlar oralig'ida 16-29 yoshgacha bo'lganlar 164,6 %ga, 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar 159,8 %ga, 50 yoshdan yuqori bo'lganlar 159,8 %ga oshgan. Buning asosiy sababi viloyat mehnat bozoridagi demografik jarayonlar bilan izohlanadi.

2.7-jadval

Samarqand viloyatida ish qidiruvchi fuqarolarni ishga joylashtirish (kishi hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007-2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Ishga joylashtirilgan fuqarolar soni	41255	44884	50048	58757	68360	165,7
2	16 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar	25943	28166	38877	34381	42705	164,6
3	30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlar	15312	15535	15654	23349	25372	160,1
4	50 yoshdan yuqori	177	334	40	228	283	159,8

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan bandligini ta'minlash yuzasidan 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 956,2 mingta ish o'ri tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Haqiqatda esa 970,9 mingta ish o'ri yaratildi yoki dastur ijrosi 1,5 foizga ortig'i bilan bajarildi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-

joylarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda respublikada 950 mingda ortiq ish o'rni tashkil etilgan (2.8-jadval).

2.8-jadval

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik

T/r	Yo'nalishlar	Yillar		
		2010	2011	2012 dastur
	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, jami (ish o'rni)	950 001	956 247	967464
	shu jumladan:			
1.	Yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316	57469	57874
2.	Kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408	365888	365897
	shundan:			
2.1.	sanoatda	52 882	54941	55921
2.2.	qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy qurilishi va ta'mirlash	43 632	43863	43988
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177	111871	117180
4.	Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972	216165	217188
4.1.	shu jumladan, korxonalar bilan kooperatsiyada mehnat shartnomalari asosida kasanachilik	62 518	55357	-
5.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732	122399	122737
6.	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	61 320	72850	72994
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889	9605	13594
8.	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187	-	-

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2.8-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda aytish joizki, 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

a) 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investisiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida eng muhim investisiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 48,9 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi yengil, to'qimachilik, avtomobil, kon-metallurgiya, neft va gaz hamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish obyekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida (234 ta), yengil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmasevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.

b) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi, kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, kreditlashni va moddiy xomashyo resurslarini olish imkoniyatlarini kengaytirish hisobidan kichik biznesda (kichik korxonalar va mikrofirmalar) 296,1 mingta, xususiy tadbirkorlikda 89,7 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Kredit bilan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini ancha kengaytirish imkonini berdi. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar hajmi 3,1 trillion so'mni, shu jumladan, imtiyozli mikrokreditlar 613,3 milliard so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Bunda 20,9 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlardagi tadbirkorlarga, 251,9 milliard so'mi xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga, 20,3 milliard so'm o'zining tadbirkorlik ishini tashkil etish uchun kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga berildi.

v) kasanachilik mehnatini rivojlantirish bo'yicha qator kattagina imtiyoz va preferensiyalar, shu jumladan, kasanachilarga buyurtmalarni, uskunalarni, xom ashyoni, asbob va jihozlarni imtiyozli ravishda berish shartlarini, kasanachining uydagi ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash tartibini, korxonalarni kasanachilarga to'lanadigan mablag' miqdorida ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovdan ozod etishni ko'zda tutadigan huquqiy va normativ baza yaratilgani kasanachilikning barcha turlarini rivojlantirish hisobidan 191,9 mingta ish o'rnini tashkil etish imkonini berdi.

O'tgan davrda kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasidagi 5,4 mingdan ortiq korxonalar jalb etilgan bo'lib, ularda kasanachilar bilan kooperasiya asosida mehnat shartnomalari bo'yicha 55,8 ming kishining bandligi ta'minlandi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari 136,1 mingta ish o'rnini tashkil etilishini ta'minlash imkonini berdi.

g) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish o'rnini, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda 35,4 mingta, bog'dorchilikda va issiqxona xo'jaliklarida 37,8 mingta ish o'rnini tashkil etilishini ta'minladi.

Fermer xo'jaliklarida meva-sabzavot hamda go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sig'imga ega bo'lgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruksiya qilish 19,7 ming kishini mehnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan dehqon xo'jaliklari sonining ko'payishi 27,9 mingta ish o'rnini tashkil etishga yordam berdi.

d) 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risidagi dasturni, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish hududiy dasturlarini amalga oshirish 59,7 mingta ish

o'zni yaratishga olib keldi. Shundan 20,2 mingta ish o'zni avtomobil va temir yo'l, gaz va suv quvurlarini o'tkazish hamda rekonstruksiya qilish obyektlarida, kommunal xo'jaligining boshqa obyektlarida, aholi punktlarini obodonlashtirish, shuningdek O'zbek milliy avtomagistrali yo'l bo'yi infratuzilmasini va servis obyektlarini rivojlantirish ishlari hisobidan tashkil etildi. Ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlarining qurilishi va ishga tushirilishi 39,5 mingta ish o'zni yaratilishini ta'minladi.

2.10-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni dinamikasi (birlik)*

Hududlar	Yillar				2011 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarish	
	2008	2009	2010	2011	+,-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Buxoro	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Navoiy	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Namangan	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Samarqand	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Toshkent	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Farg'ona	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Respublika bo'yicha	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari balanslariga jami 163 ta bankrot korxonaga qabul qilingan bo'lib, ulardan 92 tasi yangi mulkdorlarga realizatsiya qilingan, 54 tasida ta'mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda, 12 tasida esa modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash amalga

oshirilmoqda. Bunda 54 ta korxonada birlashtirish va qayta tashkil etish yo'li bilan 45 ta yangi korxonada tashkil etildi.

Respublika hududlarida ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (2.10-jadval).

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash hududiy dasturlarining amalga oshirilishi ish bilan band bo'lish ehtiyoji yuqori darajada bo'lgan hududlarda, chunonchi, Samarqand (78,3 ming), Farg'ona (77,8 ming), Andijon (75,2 ming), Qashqadaryo (72,6 ming), Toshkent (70,4 ming), Buxoro (59,9 ming) va Namangan (59,4 ming) viloyatlarida ish o'rinlarini ko'paytirishga yordam berdi.

Mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan 32 ta tuman va shaharda aholi bandligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi, ularda 118,3 mingta yoki tasdiqlangan parametrlarga nisbatan 4,2 foiz ko'p ish o'rni tashkil etildi.

Dasturni ro'yobga chiqarish doirasida 2011 yilda bo'sh turgan va yangi tashkil etilgan ish o'rinlariga 487,3 ming kishi ishga joylashtirildi, ulardan 215,7 ming nafari ayollar, 347 ming nafari qishloq tumanlarida yashovchilardir. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan ishga joylashtirilganlarning ko'pchiligini birinchi marta ish qidirayotganlar, shuningdek, o'z xohishiga ko'ra va korxonalar qayta tashkil qilinishi hamda tugatilishi munosabati bilan ishdan bo'shaganlar - 241,9 ming kishi, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar - 214,9 ming kishi, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar - 262,1 ming kishi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi.

2.3. Nodavlat ish bilan bandlik xizmati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar davrida talab qilingan darajada inson resurslarining zamonaviy ishlab chiqarishdagi ta'minoti - ish bilan bandlik xizmati oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanib borishi mehnat bozorining tashkiliy tuzilmalari sifatida davlat ish bilan bandlik xizmati organlari bilan birga turli ixtisoslashgan va universal tijorat ish bilan bandlik organlari, mehnat birjalari, o'quv markazlari, kadrlarni tanlash bo'yicha agentliklar mehnat bozorida ahamiyatli rol o'ynay boshladilar. Korxonalar va firmalarga mehnat bozorida ish bilan bandlikka ko'maklashish va ishga joylashtirish maqsadida ishchi kuchi yollashning tashqi manbalaridan biri sifatida kasbiy mehnat vositachiligidan foydalanish hisoblanadi. Shunday ekan, davlat mehnat vositachiligi faoliyatini qonuniy jihatdan tartibga solish va ijrosini nazorat qilishi zarur.

Nodavlat ish bilan bandlik xizmati mehnat vositachiligi bilan shug'ullanishda davlat ish bilan bandlik xizmati singari o'zining faoliyatida bir qancha yo'nalishlarga ega.

Bizning fikrimizcha, nodavlat ish bilan bandlik xizmatini bir necha mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin.

Mehnat vositachiligining ko'rinishlari bo'yicha ular quyidagilarga bo'linadi:

- Tijorat ish bilan bandlik xizmati;
- Notijorat ish bilan bandlik xizmati.

Nodavlat ish bilan bandlik xizmati orasida ish beruvchilarni o'zlarining mijozlari sifatida faoliyat yuritishni maqul ko'radilar. Shuning uchun mehnat bozorida funksiyalarning taqsimlanishi bo'yicha ish bilan bandlik xizmatlari quyidagilarga bo'linadi:

- xodimlarni tanlash bo'yicha agentlik (rekrut agentliklari);
- fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha agentlik, mehnat birjasi.

Ish bilan bandlikka ko'maklashishda fuqarolarni tanlash va ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi agentliklarning alohida faoliyat yuritishlari qoida tariqasida yo'q. O'z faoliyatining boshlang'ich bosqichida agarda qandaydir agentlik ikki yo'nalishdagi faoliyat bilan shug'ullansa, keyinchalik bitta yo'nalishdagi faoliyatga ixtisoslashadi.

Xodimlarni tanlash agentliklari, ya'ni rekrut agentliklari yollanma xodimlarni tanlashda quyidagi mezonlardan foydalanishlari mumkin:

- vaqtinchalik ish bilan bandlik;
- doimiy ish bilan bandlik.

Mehnat bozorida faoliyat yurituvchi nodavlat ish bilan bandlik xizmati organlari konkret tarmoqlardagi korxonalar uchun xodimlarni tanlashda ixtisoslashishi yoki barcha kasbiy-malaka belgilari bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, ma'lum bir tarmoqqa tegishli ish joylarida fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha ham xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, ishga joylashtirish bo'yicha agentliklar quyidagilarga bo'linadi:

- universal;
- ixtisoslashgan.

O'z navbatida, ixtisoslashgan kadrlar agentligi, tijorat mehnat birjalarini quyidagi mezonlar bo'yicha ajratish mumkin: firma ichidagi vertikal bosqichlar bo'yicha rahbarlik lavozimlariga xodimlarni tanlash; boshqaruv lavozimlariga xodimlarni tanlash; o'rta darajadagi mutaxassisliklar bo'yicha, yuqori malakali ishchi mutaxassislarni tanlash; malaka va tarmoq xususiyatlari bo'yicha ish joylariga xodimlarni tanlash.

Shunday qilib, ish bilan bandlik xizmatini faoliyat doirasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- kasbiy belgilari bo'yicha xodimlarni tanlash;
- malaka belgilari bo'yicha xodimlarni tanlash.

Mehnat bozorida barcha ish bilan bandlik xizmatlari turli xil korxonalar va firmalar bilan qandaydir malaka belgilari bo'yicha faoliyat olib boradilar.

Ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasida kadrlar agentligi vositachi sifatida mehnat bozorida muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy manbalarning bildirishicha, chet elda (xususan, AQShda) kadrlar agentligi orqali ishga joylashgan ishsizlar 5% ni tashkil qiladi. Bizningcha, O'zbekistonda bu ko'rsatkich (xususan, Samarqand viloyatida) hali rivojlangan mamlakatlardagi kabi ahamiyatli salmoqqa ega emas.

Samarqand viloyatida kadrlar agentligi yaqin davrlardan boshlab shakllanib bormoqda. Viloyatda Samarqand viloyat sosiologlar va Psixologlar Assosiasiyasi (SVSPA) mutaqil nodavlat notijorat tashkilot sifatida tashkil topdi.

Uning tarkibida tashkiliy tuzilmalar sifatida, imtc&Metropolis (Samarqand) Kadrlar Agentligi, Samarqand Kadrlar Klubi va boshqa tuzilmalar mavjud bo'lib, kadrlar agentligi 1999 yil oktyabr oyidan faoliyat yuritmoqda. imtc&Metropolis Kadrlar agentligi hududimizdagi birinchi va yagona hisoblanib, Samarqanddagi va O'zbekistondagi mahalliy va chet el kompaniyalari uchun personal tanlab borish, shuningdek o'z mijozlari va hamkorlariga kasbiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Agentlik ish beruvchilar bilan berilgan buyurtmalarga muvofiq tuzilgan yozma shartnomalar asosida ish olib boradi.

Agentlik oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus ta'lim muassasalari, lisey va kolledj talabalarining keng ma'lumotli bazasiga ega. Agentlik iqtidorli talabalarning amaliyot o'tishi to'g'risida ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish bilan birga, har yili bitiruvchilar yarmarkasini tashkil etadi. Agentlik nomzodlarni izlashda keng miqiyosdagi usullarni qo'llaydi:

- oyda 500-300 kishiga ko'payib boruvchi 5 mingga yaqin qisqacha xulosalardan (rezyume) iborat bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar bazasidan izlash;
- gazetalarda va televideniya e'lonlar berish, taqdimotlar va agentlar tarmog'i orqali izlash;
- o'quv yurtlari orqali izlash;
- Moskva, Toshkent, O'zbekiston va Rossiya hududlaridagi hamkor agentliklar orqali izlash;
- Rahbarlar va "eksklyuziv" mutaxassislarni to'g'ridan – to'g'ri izlash (executive search);
- Internet tarmog'i orqali izlash.

Agentlikda nomzodlarni tanlash va baholashning asosiy usullari: hujjatlarni tahlil qilish; shaxsiy va telefonlar orqali suhbatlar o'tkazish; tavsifnomalarni tekshirish; psixologik va kasbiy test sinovlarini o'tkazishdan iborat.

Shuningdek, davlat tashkilotlari va korxonalariga xodimlarni tanlash va ishga joylashtirishda bepul xizmatlar bajariladi.

Samarqand Kadrlar Agentligi davlat ish bilan bandlik xizmati organlari bilan bo'sh ish o'rinlari banki bo'yicha keng miqyosda hamkorlik o'rnatilgan bo'lib, viloyat ish bilan bandlik xizmati bu masalada kadrlar agentligiga yaqindan ko'maklashib kelmoqda. Bu esa, viloyat ish bilan bandlik xizmati bilan kadrlar agentligining mehnat bozoridagi faoliyatlari asosida ish beruvchilar va ishlashni xohlovchilar hamda axborotlar almashishi haqida ma'lumotlar bankining tuzilishi ikki tomonga ham samarali ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Agentlikda xodimlarni ishga joylashtirish kafolat muddati 6 oydan 1 yilgachadir. Masalan, «UzBAT» qo'shma korxonasiga malakali xodimlarni ishga joylashtirish kafolati 1 yilgacha.

Hozirgi kunda agentlik nomzodlarni izlash usuli sifatida o'zining ma'lumotlar bazasidan foydalanadi.

Viloyatda Samarqand kadrlar klubi Samarqand shahar kadrlar xizmati ishchilarining ijtimoiy birlashmasi bo'lib, u 1999 yil 9 dekabrda tashkil etilgan. Bu hamkorlik inson zahiralarni boshqarish sohasidagi ikki tomonlama tajriba almashinuviga va klubning keyingi rivojlanishiga olib keladi. Kadrlar klubi bugungi kunda O'zbekistondagi personal bo'yicha ishlovchi menejerlar bilan ish olib boruvchi yagona klub bo'lib, viloyatdagi 365 kadrlar bilan ishlovchi xodimlarni o'z ichiga oladi. Kadrlar texnologiyasini rivojlantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish mehnat bozorida sifat ko'rsatkichlarning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kadrlar klubining asosiy maqsadi kasbga doir qiziqishlari umumiy bo'lgan kishilarni kasbiy o'sishga va rivojlanishlari uchun xizmat yuzasidagi muloqotlarni tashkil etish, mehnat bozorida mehnat muomalasi madaniyatini rivojlantirish va personalni boshqarish institutini takomillashtirishdan iborat.

Ma'lumki, mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlari o'rtasidagi sog'lom raqobatchilik muhitining shakllanib borishi mehnat bozori samarali shakllanishining muhim asosi hisoblanadi. Shunday ekan, kadrlar agentligining

yaqin kelajakdagi raqobatchisi sifatida, internet tarmog'idagi virtual rekrut agentliklari bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda internet tarmog'ida paydo bo'lgan ko'pchilik mehnat birjalari (yoki virtual agentliklar) o'zlarining ma'lumotlar bazalariga ega bo'lib, kasbiy belgilar bo'yicha aniq axborotlar olish imkoniyatini beradi. Virtual agentliklardagi, «ishchi» saytlarning asosiy ustunligi shundaki, axborotlar olish tez, hammabop va bepul amalga oshiriladi.

Virtual agentliklar ish beruvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Chunki, gazetalardagi ish bilan bandlikni ta'minlash bo'yicha e'lonlarga nisbatan internetdagi ishchi saytlar orqali nomzodlarga to'liq va aniq ma'lumotlar asosida talabni mukammal ravishda shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu holat ish izlash sifatini oshiradi va ish izlovchilarning bundan faol foydalanish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Tajribaning ko'rsatishicha, kadrlar agentliklarining o'zlari ham ma'lumotlar bazasini to'ldirish maqsadida internetdan foydalanadilar.

Rivojlangan mamlakatlarning ish bilan bandlik sohasidagi tajribasidan ma'lumki, Internet tarmog'idagi Virtual agentliklar xizmatidan bepul foydalanish bilan birga pullik ma'lumotlar bazasidan foydalanish ham keng yo'lga qo'yilgan. Bizda hali Internet orqali ish bilan bandlikka ko'maklashish bo'yicha ma'lumotlar bazasidan foydalanishda pullik xizmatlar amalda yo'q, shuningdek, MDH davlatlarida ham.

Internetning ma'lumotlar bazasida ish izlovchilar to'g'risidagi to'liq qimmatga ega bo'lgan va yetarlicha axborotlar hamda keng miqiyosdagi ko'p omilli izlash imkoniyatlari joylashtiriladi. Ish beruvchi pullik xizmatlar uchun haq to'lash asosida o'zini qiziqtirgan nomzodning adresini internetning «ishchi saytlari»dagi ma'lumotlar bazasidan izlashi orqali topishi mumkin.

Davlat ish bilan bandlik xizmati xodimlari, kadrlar agentligi rahbarlari bilan o'tkazilgan og'zaki so'rovlar natijalari shuni ko'rsatdiki, internet tarmog'idagi ma'lumotlar bazasidan foydalanish bo'yicha pullik xizmatlar to'g'risida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Qarshi fikrni bildirganlar bo'yicha:

- nomzodlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar va ishga yollashdagi kafolatlarning yo'qligi;

- ko'pchilik ish beruvchilar qandaydir ma'lumotlar bazasidagi nomzodlarga emas, balki kadrlar agentligi orqali malakali mutaxassisni yollash bo'yicha murojaat qilishni ma'qul ko'radilar.

Internetning ma'lumotlar bazasidan foydalanishni to'lovli xususiyatga ega ekanligini qo'llab quvvatlovchilar fikriga ko'ra:

- o'nlab xorijiy pullik virtual agentliklarning samarali faoliyatlarining ta'minlanishini misol sifatida keltirish mumkin;

- bepul Internet xizmatlari chegaralangan, chunki malakali mutaxassislar hech qachon bepul Internetga o'zlarining rezyumelarini joylashtirmaydilar;

- pullik virtual agentliklari xizmati kadrlar agentligi xizmatiga nisbatan ancha arzonidir, shunday ekan talab virtual agentliklarga oshadi. Shunday qilib, pullik virtual agentliklar mijozlarning vaqtini va pulini tejash imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotlar natijalari bo'yicha tijorat bandlik xizmatlari haqidagi axborot tahlillari shuni ko'rsatdiki, nodavlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining ustun yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

4. Tashkilotlar va korxonalar uchun xodimlarni tanlash. Bu yo'nalishda xodimlarni tanlash bo'yicha imtc & Metropolis Samarqand Kadrlar Agentligi o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Agentlik xodimlarni tanlash xizmatidan tashqari maslahat xizmatlarini ham ko'rsatadi.

Har bir agentlik tijorat mehnat birjalari singari malaka yoki kasbiy tanlashga bog'liq holda ixtisoslashgan va universal bo'lishi mumkin.

Tijorat mehnat birjalari ham shunday xizmatlarni ko'rsatadi va ularning mijozlari bo'lib fuqarolar, ish izlovchilar, ish beruvchilar hisoblanishadi.

5. Ish izlovchi fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish.

Bu yo'nalishda ixtisoslashgan va universal tijorat mehnat birjalari faoliyat yuritadilar. Birjalarning ixtisoslashishi aniq aholi guruhlari bilan yoki birorta kasbiy guruhlar bilan ishlashdan iborat.

6. Ish bilan bandlik sohasida maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Muallif kadrlar agentliklari faoliyatining tahlili asosida quyidagi xulosaga keldi, ko'pchilik ish beruvchilar agentlik mutaxassislariga maslahat xizmatlari bo'yicha murojaat qilishadilar. Ish beruvchilar mehnat qonunchiligining ba'zi yuridik jihatlariga qiziqadilar. Har bir tashkilot to'qnash keladigan xodimlarni tanlash bo'yicha masalalarga va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida axborotlar olishni hojlaydilar.

Bunday xizmatlarni asosan viloyatda yagona hisoblangan Samarqand Kadrlar Agentligi ko'rsatadi. Yuridik masalalar bo'yicha vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan ilmiy seminarlarga viloyat davlat ish bilan bandlik xizmatidan mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

7. Kasbga tayyorlash.

Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tijorat birjalari va agentliklar o'quv markazlarida o'tkaziladi.

Birjalar kadrlarni o'qitishda o'quv yurtlari bilan shartnoma tuzishlari mumkin. Shuningdek, tijorat mehnat birjalari o'zlarining mijozlariga kasbiy tayyorgarlikni o'tkazish uchun davlat ish bilan bandlik xizmati o'quv markazlari yordamiga murojaat qiladilar.

8. Mehnat bozoridagi marketing xizmatlari.

Mehnat bozori infratuzilmasi tarkibiy qismlari o'rtasida mehnat vositachiligi sohasida o'zaro hamkorlikning o'rnatilishi muhim ahamiyatga egadir.

Bizning fikrimizcha, davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlarining munosabatlari bo'yicha qo'shma faoliyat quyidagi masalalarni nazarda tutishi zarur:

1) Konkret bo'sh ish o'rinlariga xodimlarni tanlash. Ko'pincha kadrlar agentligi ish beruvchilarning konkret bo'sh ish o'rinlariga xodimlarni tanlash taklifi bilan davlat ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qiladilar. Davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari o'rtasida konkret bo'sh ish o'rinlari bo'yicha o'zaro hamkorlikning ta'minlanishi, mutaxassislarni tanlash bo'yicha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmaydi.

Davlat ish bilan bandlik xizmati qancha bepul xizmatlarni ko'rsatsa, ishga joylashtirish bo'yicha agentlik ham ishsizlarni ishga joylashtirishga ko'maklashishi bepul amalga oshiriladi.

2) Xodimlarni maqsadli tanlash. Turli variantlar bo'yicha xodimlarni tanlash maqsadli bo'lishi mumkin, agarda ish beruvchilarning ish kuchiga talabi keng ko'lamda (ish haqi yuqori, qattiq shartlar asosida, tanlash vaqti chegaralangan) va agentlik uni mustaqil bajarish kuchiga ega bo'lmasa, davlat ish bilan bandlik xizmati ko'magiga tayanishi mumkin.

3) Konkret mutaxassislar uchun bo'sh ish joylarini izlash. Ba'zida shunday holatlar keladiki, nodavlat tashkilotlarning ishga joylashtirish bo'yicha ma'lumotlar bankida yuqori malakali mutaxassislar va kam uchraydigan kasbdagilarni ishga joylashtirish uddasidan chiqa olmaydilar. Bu holatda davlat ish bilan bandlik xizmati ish beruvchilar bilan oldin ishlagan davrlardagi aloqalari bo'yicha ko'rsatilgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashadi. Bunda ishga joylashtirish xizmatlari bepul ko'rsatiladi.

4) Ijtimoiy himoyaga va ish bilan bandlik xizmatidan foydalanishga muhtoj fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha hamkorlik. Fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha davlat ish bilan bandlik xizmati kadrlar agentliklari va tijorat mehnat birjalari bilan o'zaro aloqadorlikda fuqarolarga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga ijtimoiy himoyani ta'minlashi zarur.

Biroq, Samarqand viloyatida turli yo'nalishlarga asoslangan ixtisoslashgan mehnat birjalarining shakllanmaganligi, bu masala bo'yicha davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmati o'rtasida o'zaro hamkorlik ta'minlanmaganligini ifodalaydi.

Shunday qilib turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan mehnat birjalarini shakllantirish va ular o'rtasidagi erkin raqobatchilik muhitini yuzaga keltirish, mehnat sohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishiga asos yaratadi.

**III-BOB. AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA
BANDLIKKA KO'MAKLASHUVCHI MARKAZLAR FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI**

**3.1. Aholini ish bilan bandligini oshirishda Bandlikka ko'maklashuvchi
markazlar faoliyatining samaradorligini baholash usullari**

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari o'zining asosiy mijozlari bilan ishini shunday tashkil qiladiki, bunda ish beruvchi mehnat bozorining holatiga qarab ishchi kuchi talabining kelajakdagi o'zgarishi bo'yicha oldindan o'z strategiyasini ishlab chiqishi va oldinroq kadrlar tayyorlash masalasini hal qilishi zarur; ishsizlarda esa, kasbiy malakalarini o'sishiga ichki talabni rivojlantirish va mehnat bozorida raqobat kurashiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari zarurligini ifodalaydi.

Biz bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligini baholash uchun optimal usullardan foydalanishga harakat qilamiz. Bu bilan bog'liqlikda biz oldimizga quyidagi masalalarni qo'yamiz:

1. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligini baholash uchun tadbiq etilayotgan usullarni tizimlashtirish;
2. Hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimi va usullarini tahlil etish;
3. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha tatqiqotlar o'tkazish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mehnat sohasida Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari har qanday davlat tashkiloti singari iyerarxiyali (pog'onali) tuzilmalarga ega, shuning uchun uning faoliyatini baholash turli darajalardagi boshqaruv organlari sifatida amalga oshiriladi: yuqori darajada – respublika miqyosida; o'rta darajada – hudud (viloyat) miqyosida; quyi darajada – joylardagi mehnat organlari (tuman) miqyosida.

Ko'pchilik MDH davlatlarida yaqin vaqtlargacha, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari tomonidan hududiy Bandlikka

ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlarining samarali yoki samarasiz ekanligi quyidagi ikkita ko'rsatkich bilan baholangan: birinchisi – aholini ish bilan ta'minlash jamg'armasiga yig'ilgan sug'urta ajratmalari va bu mablag'larning ishsizlarga nafaqa to'lovlari uchun yetarliligi; ikkinchisi- ishsizlik darajasi, mehnat organlari ro'yxatidan o'tgan jami ishsizlar sonini jami iqtisodiy faol aholiga nisbati. Bu ko'rsatkichlar va natijalar Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatini samarali yoki samarasiz ekanligini baholash uchun yetarli hisoblangan.

Respublikamiz Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tavsiyasiga muvofiq, hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlarining samaradorligini hisoblash metodikasini qarab chiqamiz.

Respublikamiz Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarining faoliyatlarini takomillashtirish hamda mehnat bozori monitoringini mustahkamlash maqsadida, hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining samaradorligini baholash bo'yicha ko'rsatkichlar tizimini kengaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 6 apreldagi PQ-616-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholi sonini mintaqalar bo'yicha hisoblab chiqish va shu asosda mehnat resurslarining tegishli balansini ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining samaradorligini baholash uch qismga bo'linadi. 1) Ish izlovchi fuqarolarning ish bilan bandlik xizmatiga talab etilganlik darajasini baholash. 2) Ish topish maqsadida murojaat qilgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligi. 3) Ish beruvchilar bilan ishlash.

1. Ish izlovchi fuqarolarning ish bilan bandlik xizmatiga talab etilganlik darajasini baholash.

1.1. Korxonalaridan bo'shatilgan xodimlarning ish bilan bandlik xizmatiga talab etilgan darajasi, ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qilganlar sonini iqtisodiy faol aholi soniga nisbati.

1.2. Ish bilan bandlik xizmati ko'magi bilan ishga joylashtirish darajasi, muayyan davrda jami korxonalar va tashkilotlarga qabul qilinganlar ichida Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari yordami bilan ishga joylashganlar hissasi.

2. Ish topish maqsadida murojaat qilgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi bo'yicha Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligi.

2.1. Ishga joylashtirish ko'rsatkichlari va xarajatlarini baholash.

2.1.1. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari ko'magi bilan ishga joylashganlar salmog'i, hisobot davrida jami ishga joylashganlarning ish izlash maqsadida hisobda turgan jami fuqarolar soniga nisbati.

2.1.2. Ishga joylashtirish koeffitsiyenti, hisobot davrida jami ishga joylashganlarning, hisobot davrida jami hisobdan chiqarilganlarga nisbati.

2.1.3. Ishsizlarni ishga joylashtirish koeffitsiyenti, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari tomonidan ishga joylashtirilgan ishsizlar sonining Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari ro'yxatida turgan jami ishsizlar soniga nisbati.

2.1.4. Uzoq muddatdagi ishsizlikning samaradorligi, uzoq muddatdagi ishsizlar sonini hisobot davrida ro'yxatda turgan jami ishsizlar soniga nisbati.

2.1.5. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlariga murojaat qilgan fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha dasturiy vazifaning bajarilishi.

2.2. Moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning sifat ko'rsatkichlari.

2.2.1. Ishsizlarga nafaqa tayinlash muddatining bajarilishi, muddatida ishsizlik bo'yicha nafaqa tayinlanmaganlarning qonun bo'yicha jami ishsizlik nafaqasi oladiganlar soniga nisbati.

2.2.2. Ishsizlik nafaqasi to'lanishining kechiktirilishi, o'z vaqtida nafaqa olmaydigan ishsizlar sonini hisobot davridagi jami nafaqa oluvchilarga nisbati.

2.2.3. Ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlarini tayinlanish sifati, nafaqalarning tayinlanishi bo'yicha shikoyat qilganlarni qondirilish miqdorini jami nafaqa oluvchilar soniga nisbati.

2.2.4. Noqonuniy yo'llar bilan olingan nafaqalarning qaytarilishi hisobiga, aholini ish bilan ta'minlash jamg'armasiga qaytarilgan mablag'larning hissasi, qaytarilgan mablag'lar summasini ish bilan ta'minlash jamg'armasi jami xarajatlariga nisbati.

2.3. Maxsus dasturlar realizatsiyasiga qilingan xarajatlar, hisobot davrida aholini ish bilan ta'minlash jamg'armasi tomonidan jami maxsus dasturlar realizatsiyasiga qilingan xarajatlarni ishsizlar soniga nisbati.

2.4. Xodimlarni ishining samaradorligi.

2.4.1. Ishga joylashtirish bo'yicha xodimlar ishlarining samaradorligi, muayyan davr mobaynida ishga joylashganlar sonini asosiy xodimlar soniga nisbati.

2.4.2. Aholini qabul qilish bo'yicha xodimlarning ish bilan ta'minlanganligi, ish bilan bandlik xizmatiga ish topish maqsadida murojaat qilgan fuqarolar sonini asosiy xodimlar soniga nisbati.

3. Ish beruvchilar bilan ishlash.

3.1. Ishchi kuchiga talabning qondirilishi.

3.1.1. Ish bilan bandlik xizmatida mavjud bo'sh ish o'rinlarini ifodalash koeffitsiyenti, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarining oy oxiridagi bo'sh ish o'rinlari miqdorini statistika organlarining oy oxiridagi bo'sh ish o'rinlariga nisbati.

3.1.2. Ish beruvchilar tomonidan ish bilan bandlik xizmatiga talab berilganlik ko'rsatkichi, ish beruvchilarning ish bilan bandlik xizmatiga berilgan talabini hisobot davri oxiriga statistika organlariga berilgan bo'sh ish o'rinlari miqdori va hisobot davrida korxon va tashkilotlarga ishga qabul qilinganlar soniga nisbati.

3.1.3. Bo'sh ish joylari bilan ishlash samaradorligi, hisobot davrida Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari tomonidan ishchi kuchi bilan to'ldirilgan bo'sh ish joylarini hisobot davridagi jami bo'sh ish o'rinlariga nisbati.

3.2. Aholini ish bilan ta'minlash Davlat jamg'armasiga sug'urta ajratmalarining kelib tushish darajasi, hisobot davrida aholini ish bilan ta'minlash Davlat jamg'armasiga kelib tushgan mablag'lar summasini hududdagi haqiqiy ish haqi jamg'armasidan ajratilgan sug'urta ajratmalariga nisbati.

Hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining samaradorligini baholash bo'yicha yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari rivojlanishining turli bosqichlarida kengayib bormoqda va maqsaddan kelib chiqqan holda hamda faoliyat yo'nalishlaridan bog'liq ravishda o'zgarmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyati Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining natijalarini respublikamizning boshqa hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlari bilan har tomonlama baholash bo'yicha solishtirishning aniq mezoni ishlab chiqilmagan. Shu sababli, viloyatlar Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlarining natijalarini har tomonlama o'zaro solishtirish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar tizimining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kerak.

Biz o'ylaymizki, ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi masalasi ish beruvchilar va ishsizlar o'rtasida murosaviy munosabatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Murosaga kelishni bunday baholash mezoni ish beruvchilar va ishsizlar talabini qondirish imkoniyatlari hisoblanadi. Shunday ekan, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari ishining samaradorligini baholash uchun ish beruvchilar va ishsizlar talabini qondirilish darajasini aniqlash zarur.

Biz mehnat bozori konyukturasi nuqtai nazaridan quyidagi ko'rsatkichlarni Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyati samaradorligini baholashning amaldagi kompleks ko'rsatkichlar tizimiga qo'shishni taklif etamiz:

1. Mehnat bozori segmentidagi talab va taklifning nomuvofiqligi darajasi (D_n).

$$D_H = \frac{B \times 100\%}{C_u}; (\%) , \quad (3.1.)$$

Bu yerda: B (ming kishi) - Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari hisobidagi bo'sh ish joylari soni;

S_I – ro'yxatdagi ishsizlar soni.

2. Ish izlovchi fuqarolarni ishga joylashtirish koeffitsiyenti (K_{ij})

$$K_{u\kappa} = \frac{C_{u\kappa} \times 100\%}{C_{xx}} , \quad (3.2.)$$

Bu yerda: S_{II} (ming kishi) - ish bilan bandlik xizmatiga ish topish maqsadida murojaat qilgan fuqarolardan ishga joylashganlari soni;

S_{XX} (ming kishi) – iqtisodiyot tarmoqlarida ishlaydiganlar soni.

$$K_{u\kappa} = \frac{C_{u\kappa} \times 100\%}{I_{\kappa}}; \% , \quad (3.3.)$$

I_{κ} (ming kishi) - iqtisodiyotda jami ishga qabo'l qilinganlar soni.

3. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlarining mehnat bozorini qamrab olish darajasi.

a) Bo'sh ish joylari soni bo'yicha (D_{bij}):

$$D_{\delta u\kappa} = \frac{B \times 100\%}{I_{\kappa}}; (\%) , \quad (3.4.)$$

Bu yerda: B (ming kishi)- hisobot davrida Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarida mavjud bo'sh ish o'rinlari soni;

I_{κ} (ming kishi) – hisobot davrida iqtisodiy tarmoqlarida jami ishga qabul qilinganlar soni.

b) Korxonalariga jalb qilinganlar soni bo'yicha (D_{kor}):

$$D_{kopx} = \frac{K \times 100\%}{K_{\text{jami}}}; (\%), \quad (3.5.)$$

Bu yerda: K(mingta) – Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlariga bo'sh ish joylarini taklif etgan korxonalar soni;

K_{jami} (mingta) – viloyatdagi jami korxonalar soni.

v) Ro'yxatdagi ishsizlar soni bo'yicha (D_{ri}):

$$D_{pu} = \frac{C_{\text{ishsiz}} \times 100\%}{B_{\text{ufa}}}; (\%), \quad (3.6.)$$

Bu yerda: S_{ishsiz} (ming kishi) – hisobot davrida Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari ro'yxatida turgan ishsizlar soni;

B_{ifa} (ming kishi) – o'rta yillik iqtisodiy faol aholi ichida ish bilan band bo'lmaganlar soni.

4. Murojaat qilish koeffitsiyenti (K_M).

$$K_M = \frac{C_{\text{jm}} \times 100\%}{C_{\text{ym}}}; (\%), \quad (3.7.)$$

Bu yerda: S_{jm} (ming kishi) – joriy davrda ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qilgan fuqarolar soni;

S_{um} (ming kishi) – o'tgan davrda ish bilan bandlik xizmatiga murojaat qilgan fuqarolar soni.

5. Ish joylariga talabning qanoatlantirish darajasi.

Korxonalarda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan mavjud ish joylarining ma'lum miqdorini ifodalaydigan ko'rsatkich (D_{NMB}).

$$D_{\text{HMB}} = \frac{I_n \times 100\%}{I_k}; (\%) \quad , \quad (3.8.)$$

Bu yerda: I_N – korxonalarda qanoatlantirmaydigan ish joylari miqdori;

I_Q – korxonalarda qanoatlantiradigan ish joylari miqdori.

Bu ko'rsatkichning o'sib borishi korxonada faoliyatida salbiy natijalarga va rasmiy ish bilan bandlikni oshishiga olib keladi.

Bizningcha, bu koeffitsent 0,5 ga teng bo'lganda, korxonalar xo'jalik faoliyati holatini tahlil etish asosida, xulosalar chiqarib ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan salbiy natijalarga olib keladigan bunday ish joylarini ish beruvchilar tomonidan qisqartirishga yo'naltirish zarur.

3.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining tashkiliy tarkiblarini takomillashtirish

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida 2009 yilga muljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustvor yo'nalishi: "mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish" belgilab berilgan¹³.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatlarining samarali shakllanishi va rivojlanishi maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. O'zbekiston Respublikasi «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» Qonunda ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining strategiyasini takomillashtirish bo'yicha:

1.1. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari tomonidan ish bilan bandlik dasturini strategik rejalashtirish jarayonida kelajakdagi potensial ishchi kuchi taklifi (korxonalardan ozod etilayotganlar, o'quv yurtlarini bitiruvchilar, harbiy qismdagilar, maktab bitiruvchilari va boshqalar) haqida aniq va to'liq ma'lumotlar asosida xulosa berish zarur.

1.2. Malakali mutaxassislarning rezyuma bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish va ularning individual sifat tarkibining turli xilligini ta'minlash.

¹³Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шaroитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. -Т.: "Ўзбекистон", 2009. –Б. 48.

1.3. Korxonalarining buyurtmasiga ko'ra maqsadli kasbga o'qitish va qayta o'qitishni tashkil etish.

1.4. Korxonada va firmalarda xodim ish joyining ish haqi bo'yicha uni qanoatlantirish darajasini ishlab chiqish.

1.5. Ish haqi va boshqa qonuniy daromadlar chegarasini kun kechirish uchun zarur bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligini ta'minlash.

1.6. Yoshlarni mehnatga o'rgatish bo'yicha harakatlarni faollashtirish, ularni yoppasiga kasbga yo'naltirish siyosatini ishlab chiqish.

1.7. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar yaratish.

2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha:

2.1. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari xodimlari tomonidan mijozlarning quyidagi guruhlar bilan ishlashda tabaqalashtirilgan tarzda va individual jihatdan yondashish: maktab o'quvchilari; harbiy xizmatdan ozod etilgan fuqarolar; o'quv yurtlari bitiruvchilari va boshqalar.

2.2. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari ishini ish bilan band bo'lgan fuqarolar, haqiqatda ish izlayotganlar va ishsizlar bilan ishlashga bo'lish.

2.3. Ish beruvchilar bilan ishlashda korxonada ish bilan bandlik masalalariga tegishli turli xil jarayonlarni istiqbollashtirishdan tortib, korxonani modernizatsiyalash, rivojlantirishda maxsus buyurtmalarni bajarish uchun xodimlarni maqsadli tayyorlashgacha bo'lgan jarayonlar bo'yicha samarali metodikani ishlab chiqish.

2.4. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarining eng faol yo'nalishlardagi faoliyatlari bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirish uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolar, ya'ni nogironlar va pensiya oldidagi yoshda bo'lganlarni kamaytirish orqali ularga sarflanadigan moliyaviy mablag'larni tejash.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining asosiy maqsadi-fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi, ishlashni xohlaydigan

va tezda unga kirishmoqchi bo'lganlarga qaratilgandir. Yuqorida keltirilgan kategoriyadagi fuqarolarni, kam ta'minlanganlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ijtimoiy ta'minot xizmatiga muvofiq moddiy qo'llab-quvvatlash obyekti bo'lishi zarur. Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi Davlat jamg'armasi mablag'lari mehnatga layoqatli fuqarolarni ish bilan bandligiga ko'maklashuvchi bo'yicha faol ish bilan bandlik siyosati o'tkazishga taqsimlanishi zarur.

2.5. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarining mijozlar bilan ishlash doirasini kengaytirish, masalan, nafaqa tayinlashda kishini puxta tekshirish yoki aldov yo'llari bilan nafaqa olayotganlarni muntazam nazorat qilish.

3. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyat samaradorliklarining ko'rsatkichlariga baho berish bo'yicha:

3.1. Barcha bo'limlar uchun axborotga ega bo'lishni ta'minlash.

3.2. Bo'limlar o'rtasida hamda tuman mehnat bo'limlari o'rtasida tajriba almashish jarayonini tashkillashtirish.

3.3. Tuman mehnat bo'limlari faoliyatlarining samaradorligini baholash va muntazam nazorat etish.

4. Mehnat bozori holatiga baho berishda uning mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha:

4.1. Ish joylarining soni va holatini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zarur. Iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga kelayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida korxonalaridagi mavjud ish joylarining hammasi ham sharoiti va ish haqi to'lovi bo'yicha maqbul hisoblanmaydi.

4.2. Ishchining mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha uning ish joyi xarakteriga muvofiqligini aniqlash uchun metodika ishlab chiqish.

4.3. Korxonalarda kadrlar ko'nimsizligini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

5. Davlat va nodavlat Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha:

5.1. Viloyat davlat Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari va Samarqand Kadrlar Agentligi o'rtasida tajriba almashishni tashkil etish.

5.2. Davlat va nodavlat Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari o'rtasida yagona bo'sh ish o'rinlari bankini vujudga keltirish hamda axborotlar almashishni yo'lga qo'yish.

5.3. Yuqori malakali (eksklyuziv) kadrlar bo'yicha ikki tomonlama ma'lumotlar bankini tuzish.

5.4. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi sohasida faol ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

5.5. Aholini ish bilan ta'minlashda tarmoqlardagi kasbiy malaka bo'yicha ixtisoslashish.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatlarining turli darajalarini o'z ichiga oluvchi va belgilangan, bir-biriga yaqin masalalarni bajarilishini ta'minlovchi funksional tuzilmalar tuzish zarur. Bu funksional tuzilmalarning yaratilishi mehnat bozorida samarali davlat siyosatini yuritishning tashkiliy asosi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, funksional tuzilmalar faoliyatining belgilangan masalalar bo'yicha maqsadidan kelib chiqqan holda o'zaro birikishi ular o'rtasida aloqadorlikni mustahkamlaydi va funksiyalar takrorlanishini minimumgacha tushirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, aniq belgilari bo'yicha bir qancha tashkiliy bloklarning o'zaro aloqadorligini o'z ichiga oluvchi tashkiliy tizimlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- ishga joylashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish, ish bilan bandlik dasturi hamda ishga joylashtirishga kumaklashish bo'yicha tashkiliy tizim;
- statistik tadqiqotlar o'tkazish, mehnat bozorini tahlil qilish va istiqbollashtirish va sosiologik so'rovlar o'tkazish bo'yicha tashkiliy tizim;
- ish bilan bandlik xizmatining rivojlanishi, personalni boshqarish, ish bilan bandlikka ko'maklashni moliyalashtirish bo'yicha tashkiliy tizim;

- ixtisoslashgan ish bilan bandlik (administrativ – boshqaruv xodimlarini ishga joylashtirish masalalari, migrantlar, nogironlar, qishloq aholisi, jamoat ishlari, vaqtinchalik ishga joylashtirish).

Yuqorida keltirilgan tuzilmaviy tizimlar, bir tomondan – funksiyalar bajarilishining bir xilligi bo'yicha, ikkinchi tomondan – aloqa turi bo'yicha turli darajalardagi aloqalarni yuzaga keltiradi.

Hududiy darajadagi Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlarining iyerarxik (pog'anali) tuzilishi viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi va uning joylardagi mehnat bo'limlaridan iboratdir.

Bizningcha, hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari alohida yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashgan bo'limlar ko'rinishidagi tashkiliy tuzilmalar safatida iborat bo'lmasligi kerak. Chunki, alohida funksional yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashgan bo'limlarning mavjudligi ular o'rtasida tajriba va axborot almashish samaradorligini pasaytiradi.

Shunday ekan, Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari bir qancha yo'nalishlarni birlashtiruvchi alohida bloklardan iborat bo'lishi zarur (3.3-rasm).

Hududiy Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari va uning joylardagi mehnat bo'limlari o'rtasida samarali munosabatlarni ta'minlash hamda mehnat bo'limlari mutaxassislari ishlarining samaradorligini oshirish uchun joylardagi mehnat bo'limlari ish faoliyatlarini qayta qurish zarur.

Tuman rining ishsizlar bilan ishlashi alohida funksional qismlari faoliyati yakka tartibda va aniq izchillikda olib boriladi. Ishsizlar bilan ishlashning birinchi bosqichida mehnat bo'limiga murojaat qilgan kishi ishsiz sifatida ro'yxatga olingandan keyin, ishga joylashtirish bo'yicha inspektor mos ish joyini izlaydi. Inspektorning bu faoliyati 1-1,5 oyni tashkil etadi. Keyingi bosqichda mijozning ish bilan band bo'lmaganlik (agarda u ishlayotgan bo'lmasa) sabablari aniqlanadi. Bunda ishsiz fuqaro kasbga yo'naltirilishi yoki qayta o'qitishga yuborilishi mumkin. Bu jarayon 1 haftadan 1 oygacha muddatni olishi mumkin. Ishsiz bilan ishlashning keyingi davriga 1,5 dan 2 oygacha vaqt ketishi mumkin. Demak,

mijozning ishsiz sifatida ro'yxatda bo'lish davri o'rtacha 5 oy chegarasida tebranib turadi.

Tuman bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ham ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolarning ishsizligining davomiyligini qisqartirish maqsadida, bir necha mutaxassislarni birlashtiruvchi alohida bloklardan iborat bo'lishi kerak.

Biz bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida turli yo'nalishlardagi ishlar bo'yicha bir necha mutaxassislarni o'z ichiga oluvchi komanda yoki qism ko'rinishidagi tuzilmalarni tashkil etishni taklif etamiz. Masalan:

1) Ishga joylashtirish bo'yicha xodim (yoki xodimlar), ular ishsizlarning hujjatlarini dastlabki tekshiruvini o'tkazish, bo'sh ish o'rinlari bo'yicha har tomonlama (ish haqi to'g'risida, mehnat xarakteri to'g'risida) axborotlar to'plash kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishlari mumkin;

2) Ish beruvchilar bilan ishsizlarning uchrashuvlarini tashkillashtiruvchi va ish beruvchilar bilan ish uchun javobgar xodim;

3) Kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatchi xodim va qayta o'qitish bo'yicha mutaxassis. Bunday komandalarning funksional majburiyatiga ishchi kuchiga talab haqida axborotlarni to'plash, korxonalar uchun xodimlar tanlash, mehnatni tashkil etish masalalari bo'yicha tadbirkorlarga maslahatlar berish va boshqalar kiradi.

Bunda komandalarning samarali ishlashi uchun tuman mehnat bozori segmentlari bo'yicha ajratish mumkin (hududiy belgilari bo'yicha, iqtisodiy belgilari bo'yicha va boshqalar). Mehnat bozorida tarmoq belgilari bo'yicha segmentlarga ajratilishi natijasida har bir tarmoqda mutaxassis – xodimlarning ixtisoslashishi tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi sohasidagi faoliyatlarining samaradorligini oshiradi. Mehnat bozorida ish bilan bandlik masalalarini yechishning bunday shaxsiy yondashuvi tuman Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari mutaxassislarning javobgarligini oshiradi hamda Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari

organlarining yo'llanmasi bilan ishsizlarni ishga qabul qilishda ish beruvchilarning rad etishini kamaytiradi.

Shuningdek, eng birinchi – ishsizlarga xizmat ko'rsatish vaqti qisqaradi, bu esa, ishsizlikning o'rtacha davri qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning yeng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo'lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi deb qaraladi. Ish bilan bandlik muammolarining ijtimoiyligi uning avval, boshdan insonga, uning manfaatlariga va mehnat sohasidagi yehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Ish bilan bandlikning yeng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini (aspektini) hisobga olish kerak bo'ladi:

a) ish bilan bandlik insonning Konstitusiyada belgilab berilgan yeng muhim huquqi - mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligidir;

b) turmush darajasini va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik, mehnat faolligini oshirish hozirgi vaqtda mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning yeng muhim kafolatidir;

v) har kimning va umuman jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi sababini shakllantirish;

g) aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Ijtimoiy siyosatning boshqa jihatlari bilan birga qo'shib qaralganda ish bilan bandlik rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri deb qaralishi kerak, ushbu yo'nalishlar milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini qayta guruhlarga ajratishni, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, turmush sifati darajasini oshirish yo'llarini belgilab beradi. Bu g'oyat muhim muammolardan biri bo'lib, ish bilan bandlik muammolarini hal qilish, binobarin, butun iqtisodiyotni isloh

qilishning muvaffaqiyati ana shu muammoni ye'tirof qilish va hal yetishga ma'lum darajada bog'liqdir.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlikning **asosiy** xususiyatlari:

- ish bilan to'liq va samarali bandlikni birga qo'shib olib borishni balansli holga keltirish;

- mehnat qilishning ixtiyoriyligi va mehnat sohasida inson huquqlari hamda vazifalarining uyg'unlashuvi, xodimlarning ijtimoiy boqimandaligiga barham berish, munosib turmushni ta'minlaydigan ish topish imkoniyati uchun fuqaro bilan davlatning baravar mas'uliyati;

- mehnat samaradorligini oshirish yo'lida uni sarflash tarmoqlari, sohalar, kasblar va hududlar o'rtasida ishchi kuchining yerkin harakati;

- yangicha mehnat sababi, tadbirkorlik va xodimlarning yuqori unumli mehnat qilishdan kuchli manfaatdorligi;

- bozor iqtisodiyotining salbiy oqibatlarini mehnatkashlar manfaatini ko'zlab, aniq maqsad bilan yumshatib borish.

Bu xususiyatlar ish bilan bandlikning yangi sifat xususiyatlarini belgilab beradi, ularning shakllanishiga tegishli ish bilan bandlik sifati mos kelishi lozim. Biz ish bilan bandlik siyosatini qo'yilgan maqsadlarga yerishish uchun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bivosita ta'sir ko'rsatish choralari majmui sifatida qarab chiqamiz. Bunda ish bilan bandlik siyosatining maqsadlari ish bilan bandlikning normativ holatini aks yettirishi kerak, hozirgi kun muammolarini hal qilish bilan bunday holatga yerishish mumkin.

Ish bilan bandlik siyosati bir necha darajaga yegadir: umumdavlat (makrodaraja), mintaqaviy va mahalliy darajalar. Ish bilan bandlik siyosatining barcha darajalari yagona ish bilan bandlik konsepsiyasi bilan birlashgan bo'ladi, bu konsepsiya iqtisodiy rivojlanishning qabul qilingan tipini aks yettiradi.

Makrodarajadagi ish bilan bandlik siyosati ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi ish bilan bandlikning asosiy xususiyatlarini shakllantirishga:

fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalga oshirish va yuqori turmush darajasiga yerishishning zarur sharti bo'lgan ish bilan to'liq bandlikni ta'minlashga qaratilgandir. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti boshqaruv usullarida iqtisodiyot samaradorligini oshirishga, xo'jalik yuritish sohasi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan ish o'rinlarini siqib chiqarishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining iste'mol talabini qondirish uchun ishchi kuchini qayta guruhlariga bo'lishga qaratilgandir. Bunday sharoitda ish bilan to'liq bandlikka ko'maklashuvchi strategik maqsad bo'lib qoladi.

Yeng yaqin taktik maqsad ish o'rinlariga bo'lgan talab va taklifning balanslanishidir. Bunga faqat ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansli bo'lishiga yerishish shartlariga kompleks yondashuv bilan yerishish mumkin. Ko'pincha bu muammoni hal qilishda ommaviy ishsizlikning oldini olishning zarur sharti bo'lgan ish o'rinlari tizimini rivojlantirishga ye'tibor beriladi.

Aholining ish o'rinlariga bo'lgan talabining pasayishiga, uning ayrim guruhlarining haddan tashqari ish bilan bandligiga barham berish, buning uchun bolali ayollar, ishni o'qish bilan qo'shib olib borayotgan yoshlarga, pensionerlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturini takomillashtirishga mehnat unumdorligini oshirishni jadallashtirish sharoitida ish bilan to'liq bandlikni ta'minlashning zarur sharti deb qaralishi kerak. Bu yerda gap mehnat resurslarini mehnat sohasi, o'qish va ish bilan ixtiyoriy bandlik sohalari o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qayta guruhlariga bo'lish haqida bormoqda.

Ish bilan bandlik sohasini demokratlash, mehnat kishisini ozod qilish ish bilan bandlikning qattiq tartibga solingan shartlaridan voz kechish, mehnatga qobiliyatli aholining turli guruhlari shaxsiy manfaatlari bilan kasb imkoniyatlarini baravarlashni bildiradi. Tadbirkorlik yoki bajaruvchilik faoliyati, davlat xizmatini yoki o'z tijorat ishlarini ma'qul ko'rish butun mehnatga qobiliyatli davr mobaynida yoki uning ayrim bosqichlarida ishlash, mehnat rejimining turli-tumanligi - bularning hammasi fuqarolarning xilma-xil kasbiy manfaatlari qondirish uchun zarurdir. S'Hu sababli ish bilan bandlik sharoitlarining xilma-xilligiga o'tish

qanchalik faolroq amalga oshirilsa, yuqori unumli mehnatning yangicha mehnat sababi shunchalik tez paydo bo'ladi va ish bilan to'liq bandlikni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Dunyoda bozor iqtisodiyoti rivojlangan biror mamlakat yo'qki, unda ish kuchiga bo'lgan talab va taklif muvozanatiga mehnat sohasida moslashuvchanlikni— to'liq ish vaqtiga yega bo'lmagan mehnat rejimini, alohida bo'lingan ish o'rinlarini va hokazolarni keng tatbiq yetmasdan turib yerishib bo'lsin. Misol uchun S'Hvesiyani oladigan bo'lsak, u yerda mehnat qilish huquqini amalga oshirish muammosi muvaffaqiyatli hal yetilmoqda, ishlovchi ayollarning 45 % ga yaqini to'liq bo'lmagan ish vaqtida mehnat qiladi.

Ish bilan bandlikning moslashuvchanligi muammosida asosiy narsa — tanlashning ixtiyoriyligi va mehnatni kamroq vaqt ichida ishlab, durustgina ish haqi olish imkonini beradigan qilib tashkil yetishdir. Hozircha bozor vositalari to'liq ishlashga yerishilmagan yekan, davlatning muqobil mehnat rejimlarini rivojlantirishga ko'mak berishini kuchaytirish zarur bo'ladi.

Korxonalar bilan mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari mehnat rejimlari o'rtasida ishchi kuchi samarali kelib turishi uchun yaxshi o'ylab ko'rilgan daromadlar siyosati va ularning darajasini soliq tizimi bilan tartibga solib turish kerak bo'ladi. Ish haqining o'sishiga xo'jalik yuritish subektlaridan cheklashlarni olib tashlanishi byudjetdan mablag' bilan ta'min yetiladigan tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirishning puxta o'ylangan chora-tadbirlari bilan qo'shib olib borilishi kerak. Bu ma'lum darajada aqliy mehnatni (ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat) rag'batlantirish bilan bog'liqdir.

Butun iqtisodiyotni isloh qilishning va ish bilan bandlikning sifat jihatidan yangi holatini tarkib toptirishning yeng keskin muammolaridan biri **mehnat sababidir**. Mehnat sababi mehnat sharoitlarining umumiy majmuiga va inson hayotiga, xususan, insonning hozir ishlayotganidan ham samaraliroq ishlay olish qobiliyatiga bog'liqdir. S'Huning uchun mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, mehnatga haq to'lash va butun taqsimlash siyosatini isloh qilishdan tashqari xodimni yaxshi ishlashga rag'batlantirish, jadal va yanada samaraliroq mehnat

qilish qobiliyati kasb malakasi yetarli darajada yuqori bo'lgan va ishchanlik qobiliyati rivojlangan sharoitdagina barqaror bo'lishi mumkin. Insonning sog'lig'i va uning ishchanlik qobiliyatini tiklash sharoitlari ham ma'lum darajada ahamiyatga yegadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning sog'liq nuqtai nazaridan ishchi kuchining sifatiga bo'lgan talablari ortib boradi.

Bundan tashqari, bugungi kunda sosial-ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni chuqur qayta qurish sharoitlarida mehnat sabablarida birinchi o'ringa fuqarolarning ijtimoiy kayfiyati chiqarilmoqdaki, bunday kayfiyat deganda hozirgi vaqtda turmush sharoitining haqiqatda yaxshilanishigina yemas, balki ijobiy siljishlarning muqarrarligiga, tanlangan islohotlar yo'lining to'g'riligiga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning adolatli yekanligiga ishonchning mavjudligi ham tushuniladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoya (muhofaza) haqida ko'p gapirilmoqda, lekin u ko'pincha tor ma'noda, davlatning ishsizlarga, ayniqsa, aholining ijtimoiy yeng nochor qismiga ko'rsatadigan yordami tariqasida tushuniladi.

Biroq, ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, uning oldini olish tizimi to'g'risida g'amxo'rlik qilish jamiyat uchun ye'tiborli tomonlardan biri hisoblanadi. Bu tadbirlar orasida ancha muhimi jamiyatning har bir a'zosi uchun ish bilan bandlik sohasidagi o'z o'rnini haqiqatan ham yerkin tanlashga, ish kuchining ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini oshirishga, uning yuksak raqobatbardoshligini shakllantirishga davlatning har tomonlama yordam ko'rsatishidir. Bularning hammasi ish bilan bandlik sohasini demokratlashga olib keladigan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishni talab qiladi. Avvalo, quyidagilar zarur: hudud bo'yicha ko'chib yurish yerkinligini, kasbni o'zgartirish mumkinligiga odamlarning ishonchini, aqliy mehnat va xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatning nufuzini oshirish; muqobil mehnat rejimlarini rivojlantirish va hokazolar talab qilinadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonda aholini ish bilan bandligini ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va bu sohalarni rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari muhim o'rin tutadi.

2. Mehnat bozorining asosiy indikatorlaridan biri ishlovchilarning ishga joylashish ko'rsatkichidir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraladigan bo'lsa, ishga joylashganlar sonining ham mutlaq, ham nisbiy ko'rsatkichlarning oshayotganligini mehnat bozoridagi ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin. Tajribaning ko'rsatishicha mamlakat mehnat bozoridagi talab asosan malakasiz mehnatga yo'naltirilgan degan fikrni qisman tasdiqlaydi. Ishlovchilar orasida ish joyini tez-tez o'zgartiradigan, hamda uncha yuqori malakaga ega bo'lmaganlarning ko'pligi mehnat bozoridagi vaziyatni keskinlashtiradigan holatlardan biridir.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirishning birdan-bir vositasi investisiyalar samaradorligini ta'minlashdir. Mehnatga bo'lgan talabning navbatdagi omili o'zaro bir-birini to'ldiradigan mehnat resurslari bilan bog'liqdir. Agar bitta stanokni xodim boshqarsa va bu xildagi stanoklar narxi oshsa, u holda bu stanoklarda ishlaydigan ishchilarga talab boshqa teng sharoitlarda pasayadi va aksincha bo'ladi.

4. Bizningcha, tashkiliy jihatdan mehnat bozori ijtimoiy institutlar tizimi sifatida maydonga chiqar ekan, mazkur bozorda bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishida muhim tashkiliy tuzilmalar majmui hisoblanadi. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatlarining samaradorligini

oshirishning asosiy maqsadlari mehnatdan foydalanish muammolari, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir.

5. Davlat ish bilan bandlik siyosatini ancha samarali va maqbul yo'nalishi - faol ish bilan bandlik siyosati bo'lib, ishchi kuchiga talabni oshirish maqsadida davlat ish bilan bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobiga ish joylarini yaratish, korxonalariga qo'shimcha ish joylarini yaratish maqsadida kreditlar berish yo'li bilan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Ishchi kuchiga talabning taqchilligi sharoitida mehnat bozori holatining tahlili shuni ko'rsatdiki, bandlikka ko'maklashuvchi markazlar fuqarolarni aniq ishlarga tayyorlashi zarur.

6. Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari o'zining asosiy mijozlari bilan ishini shunday tashkil qiladiki, bunda ish beruvchi mehnat bozorining holatiga qarab ishchi kuchi talabining kelajakdagi o'zgarishi bo'yicha oldindan o'z strategiyasini ishlab chiqishi va oldinroq kadrlar tayyorlash masalasini hal qilishi zarur; ishsizlarda esa, kasbiy malakalarini o'sishiga ichki talabni rivojlantirish va mehnat bozoridagi raqobat kurashiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari zarurligini ifodalaydi.

7. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari organlari faoliyatining samaradorligini baholash uch qismga bo'linadi. 1) Ish izlovchi fuqarolarning ish bilan bandlik xizmatiga talab etilganlik darajasini baholash. 2) Ish topish maqsadida murojaat qilgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish bo'yicha Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari faoliyatining samaradorligi. 3) Ish beruvchilar bilan ishlash.

8. Biz bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida turli yo'nalishlardagi ishlar bo'yicha bir necha mutaxassislarni o'z ichiga oluvchi komanda yoki qism ko'rinishidagi tuzilmalarni tashkil etishni taklif etamiz. Masalan:

– Ishga joylashtirish bo'yicha xodim (yoki xodimlar), ular ishsizlarning hujjatlarini dastlabki tekshiruvini o'tkazish, bo'sh ish o'rinlari bo'yicha har tomonlama (ish haqi to'g'risida, mehnat xarakteri to'g'risida) axborotlar to'plash kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishlari mumkin;

– Ish beruvchilar bilan ishsizlarning uchrashuvlarini tashkillashtiruvchi va ish beruvchilar bilan ish uchun javobgar xodim;

– Kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatchi xodim va qayta o'qitish bo'yicha mutaxassis. Bunday komandalarning funksional majburiyatiga ishchi kuchiga talab haqida axborotlarni to'plash, korxonalar uchun xodimlar tanlash, mehnatni tashkil etish masalalari bo'yicha tadbirkorlarga maslahatlar berish va boshqalar kiradi.

9. Ish bilan bandlikning yeng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini (aspektini) hisobga olish kerak bo'ladi:

a) ish bilan bandlik insonning Konstitusiyada belgilab berilgan yeng muhim huquqi - mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligidir;

b) turmush darajasini va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik, mehnat faolligini oshirish hozirgi vaqtda mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning yeng muhim kafolatidir;

v) har kimning va umuman jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi sababini shakllantirish;

g) aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi.

10. Ish bilan bandlik sohasini demokratlash, mehnat kishisini ozod qilish ish bilan bandlikning qattiq tartibga solingan shartlaridan voz kechish, mehnatga qobiliyatli aholining turli guruhlari shaxsiy manfaatlari bilan kasb imkoniyatlarini baravarlashni bildiradi. Tadbirkorlik yoki bajaruvchilik faoliyati, davlat xizmatini yoki o'z tijorat ishlarini ma'qul ko'rish butun mehnatga qobiliyatli davr mobaynida yoki uning ayrim bosqichlarida ishlash, mehnat rejimining turli-tumanligi - bularning hammasi fuqarolarning xilma-xil kasbiy manfaatlari qondirish uchun zarurdir.

Yuqorida qayd etilgan xulosa va tavsiyalardan amalda foydalanish respublikamizda mehnat bozori infratuzilmasining samarali shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Bu esa, aholini ish bilan oqilona ta'minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Iqtisodiyot huquq dunyosi”, 2010.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 20-son, 215-modda.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli “Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi Qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.

2.12.. Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 05.01.2006 yil.№PF3706.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 104-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil 15son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.1. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

1.2. I.A.Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.– T.: “Ma'naviyat”, 2008.

1.4. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: “O'zbekiston”, 2009.

1.5. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

1.6. I.A.Karimov. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.

1.7. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

2.2. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

2.3. Karimov I.A. Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” gazetasi.

2.4. Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

2.5. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

III. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

1.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” - 2009.

1.2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2008.

1.3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakiyeva I.A. “Mehnat iqtisodiyoti” – T.: TDIU, 2011.

1.4. Hayitov A.B., Adilova G.G., Arabov N.U. “Xorijda mehnatga haq to'lashni tashkil etish” - T.: TDIU, 2011.

1.5. Рынок труда: Uchyebnoye posobiye. /Pod obщ.ryed. Abduraxmonova K.X., Odyegova Yu.G. – T.: TFREA, 2009.

1.6. Bakiyeva I.A. “Inson resurslari iqtisodiyoti” fani (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2011.

1.7. Abduramanov X.X. “Mehnat resurslari safarbarligi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011.

1.8. Xolmuminov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehgnat ko'rsatkichlari tahlili (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2009.

2. Rossiyada chop etilgan

2.1. Ekonomika i sosiologiya truda. Uchyebnik. / Pod. ryed. A.Ya.Kibanova. – M.: INFRA-M, 2010.

2.2. Volgin N.A. Ekonomika truda: (sosalno-trudovyye otnoshyeniya) / Pod ryed. N.L. Volgina, Yu.D. Odyegova. -M.: «EKZAMEN», 2009

2.3. Kyazimov K.G. Рынок труда i zanyatost nasyelyeniya: Uchyeб. posob.– M.: «Pyerspyektiva», 2005.

2.4. Mumladzye R.G. Ekonomika i sosiologiya truda: uchyeбnik / pod общ ryed R.G. Mumladzye. – 2-ye izd., styer. - M.: KNORUS, 2007.

2.5. Rofye A.I., Zбыshko B.G., Ishin V.V. Рынок труда, zanyatost nasyelyeniya, ekonomika ryesursov dlya truda: Uchyeб. pos. /Pod ryed. A. I. Rofye. - M: Izd-vo «MIK», 1997.

2.6. Odyegov Yu.G. i dr. Ekonomika truda: Uchyeбnik. V 2 t. T. 1. – M.: «Alfa-Pryess», 2007.

2.7. Odyegov Yu.G. i dr. Ekonomika truda: Uchyeбnik. V 2 t. T. 2. – M.: «Alfa-Pryess», 2007.

2.8. Рынок труда: uchyeбnik / pod ryed. prof. B.C. Bulanova. Рынок труда: uchyeбnik / pod ryed. B.C. Bulanova i N.A. Volgina. — 3-ye izd., pyeryerab. i dop. — M: «Ekzamyen», 2007

2.9. Ekonomika i sosiologiya truda: uchyeбnik./Pod. Ryed. Prof. A.Ya.Kibanova. –M.: INFRA-M, 2007

2.10. Adamchuk V.V. Ekonomika i sosiologiya truda / V.V. Adamchuk, O.V.Romashov, M.Ye.Sorokina- M: YuNITI, 2001.

2.11. Kyeyns Dj. M. Общaya tyeoriya zanyatosti, prosyenta i dyenyeg. Izbr proizvyedyeniya. –M.: Ekonomika, 1993.

2.12. Samuelson P. Ekonomika .– M.: NPO Algon, 1992.

2.13. Eryenbyerg. R.D., Smit R.S. Sovryemyennaya yekonomika truda. Tyeoriya i gosudarstvyennaya politika: Pyer. s angl. - M: Izd-vo MGU, 1996.

- 2.14. Makkonnyell K., Bryu S. Yekonomiks: Prinspy, problemy i politika. T. 2. – M.: Progyress, 1992.
- 2.15. Marshall A. Prinspy politichyeskoy ekonomii. – M.: Progyress, 1983.
- 2.16. Smit A. Isslyedovaniye o prirode i prichinax bogastva narodov. -M.: Nauka, 1993.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Darslik va o'quv qo'llanmalar

- 1.1. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
- 1.2. Abdurahmonov Q.X., V.Imomov. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. – T.: “Akademiya”, 2008.
- 1.3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'lumotlar tarixi. – T.: “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005
- 1.4. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z. Malakali agrar mehnat bozorining shakllanishi. – T.: “Fan”, 2003.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012.

2. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari

- 2.1. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

3.Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertasiyalar

1. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. 08.00.10. – “Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo’yicha Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyasi. – T.: 2008.

V. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

- 5.1. “Xalq so’zi” gazetasi 2008-2011 yil sonlari.
- 5.2. “Bozor, pul, kredit” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.3. O’zbekiston iqtisodiyoti jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.4. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.5. O’zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharh. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.6. O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.7. O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisobotlari.
- 5.8. Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi hisobotlari.
- 5.9. Samarqand viloyat Statistika Bosh boshqarmasi hisobotlari.

V. *Internet saytlari*

<http://www.prezident.uz> – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti.

<http://www.stat.uz> – O’zbekiston Respublikasi Statistika Qo’mitasi veb-sayti.

<http://www.mintrud.uz> - O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholining ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining veb-sayti.

<http://www.samarqand.uz> – Samarqand viloyat hokimligi veb-sayti.

ILOVA

**1-IIova
1-jadval**

O'zbekiston Respublikasida Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar va ishga joylashtirilganlar soni dinamikasi*

Hududlar	Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni, birlik			Ishga joylashtirilganlar soni, birlik			Murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashtirilganlar ulushi, foiz		
	2007 y	2009 y	2011 y	2007 y	2009 y	2011 y	2007 y	2009 y	2011 y
Qoraqalpog'iston Respublikasi	40151	47339	45115	36227	42976	43333	90,2	90,8	96,1
<i>viloyatlar:</i>									
Andijon	44852	55229	68236	39451	48313	62577	87,9	87,5	91,7
Buxoro	31976	39819	44475	27272	31668	40507	85,2	79,5	91,1
Jizzax	27693	32526	21457	23821	27957	18170	86,0	86,0	84,7
Qashqadaryo	55603	58855	56419	49712	52175	50671	89,4	88,7	89,8
Navoiy	29940	30269	23121	26220	26811	21373	87,5	88,6	92,4
Namangan	50010	58851	49655	41450	49861	45103	82,8	84,7	90,8
Samarqand	53753	64355	76350	48708	59020	68360	90,6	91,7	89,5
Sirdaryo	18367	20908	16210	15212	17725	14407	82,8	84,8	88,9
Surxondaryo	30695	38012	42689	28220	32911	38913	91,9	86,6	91,2
Toshkent	37216	43343	56743	33099	39203	52943	88,9	90,4	93,3
Farg'ona	65777	76723	87934	57332	66596	77128	87,1	86,8	87,7
Xorazm	37055	46111	36291	28266	32073	31401	76,2	69,6	86,5
Toshkent sh.	34350	46158	36746	31545	38018	30805	91,8	82,4	83,8
Respublika bo'yicha	557438	658498	661441	486535	565307	595691	87,3	85,8	90,1

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

